

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

Magistratura bo‘limi

“O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi” kafedrası

Bobonazarova Shahnoza Saidjon qizi

**“Ta’lim bosqichlarida Erkin Vohidov hayoti va ijodini uzviylik va
uzliksizlikda o‘rganish”**

Mutaxassislik: 5A141102-O‘zbek adabiyoti

magistrlik dissertatsiyasi

DAKda himoya qilishga ruxsat berilgan

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

_____M.Esonov

“O‘zbek tili va adabiyoti

O‘qitish metodikasi” kafedrası

«_____» iyun 2013 y

mudiri _____

ped.f.d., prof R.Niyozmetova

Ilmiy rahbar_____

p.f.d., prof. G. Eshchonova

Toshkent

Mundarija

KIRISH: mavzuning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, nazariy va uslubiy asoslari.....3

I bob. Umumiy o'rta ta'limda xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish samaradorligini ta'minlash omillari.

1.1. Boshlang'ich sinflarda shoir ijodini o'rgatish holati.....7

1.2. Shoir hayoti va ijodini o'rgatishda dars samaradorligiga erishish usullar.....36

Birinchi bob bo'yicha umumiy xulosalar.....45

II bob. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi adabiyot darsliklarida shoir Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatishning o'ziga xosligi.

2.1. Akademik litseylarda adabiy ta'limda so'z san'atkori Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish xususiyatlari.....46

2.2. Kasb-hunar kollejlarda shoir ijodini o'rgatishning samarali usullaridan foydalanish.....64

Ikkinchi bob bo'yicha umumiy xulosalar.....79

XULOSA.....80

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....81

ILOVALAR.....83

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrning birinchi choragi dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan davr bo'lib, turli mafkuralar to'qnashuvi keskin tus olayotir. Bugungi kunda fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat qudrati bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ajdodlarimiz yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida tarbiyalash; el-yurt manfaatlari yo'lida yashab, mehnat qiladigan yurtsevar, millatparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'quvchi yoshlar qalbida yuksak insoniy tuyg'ular chuqur ildiz otishi jamiyat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ma'naviyatning qudratli kuchga aylanishi tezlashadi. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zbo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat ongsiz va zaif nuqtaga aylanadi», – degan edilar.¹

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan, qudratli ta'sir kuchiga ega badiiy adabiyot vositasida yoshlarda yuksak tuyg'ularni shakllantirish mumkinki, bu o'ta muhim vazifani adabiy ta'lim amalga oshiradi.

Respublikamiz Prezidenti bejizga: **“...adabiyot masalasi bu ma'anviyat masalasidir”**²,– degan fikrni aytmagan. Demak, kasb-hunar kollejlari adabiy ta'limi samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo'llarini belgilab berish o'ta dolzarb ilmiy-pedagogik muammodir.

Mustaqillik yillarida adabiy ta'lim jarayonida shoir yoki yozuvchi hayoti va ijodini o'rgatish vositasida yoshlarga el ardog'idagi yaratuvchi, fidoyi, iste'dodli so'z san'atkorlarini tanitish va ibrat qilib ko'rsatish; ijod namunalarini tahlilu talqin qilish orqali ular shaxsiyatiga o'quvchini yaqinlashtirish, fazilatlari va o'ziga xos tafakkur tarzini, ruhiyatini anglatish; har bir ijodkorning betakror badiiy olami,

¹ И.А.Каримов. Юксак маънавият – энгилмас куч. Т., – Маънавият. – 2008. 116-б.

² Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: “Ўзбекистон”, 2009. -23 б.

etiqodi, dunyoqarashi mohiyatini, kechinma hamda tuyg'ulari zamiridagi ma'nolarni tushunishiga ko'maklashishi eng samarali yo'l ekanligi isbotlandi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida shoir Erkin Vohidovov kabi el hurmatiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi ijodini umumiy o'rta ta'lim bosqichlari hamda akademik litseylar adabiy ta'limida o'rgatish orqali o'quvchilarda yuksak tuyg'ularni tarkib toptirishning samarali vositalari, metod va usullari yoritilganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Jamiyatimiz ma'naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog'lanadi. Ta'lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo'lgan, hayot yo'li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so'z san'atkorlari ijodini o'rgatish adabiy ta'limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Xalq shoiri Erkin Vohidov ana shunday ijodkorlardan biri bo'lib boshlang'ich ta'limning «O'qish» darsliklaridan boshlab uning ijodi bosqichma-, bosqich o'quvchiga o'rgatiladi. O'quv dasturlariga e'tiborni qaratsak, shoirning 2-sinfda: «O'lka», «Olma»; 3-sinfda: «O'zbekim», «Yangi yil archasi», «Kamtarlik haqida»; umumiy o'rta ta'limda esa 5-sinf adabiyot darsligida Erkin Vohidov hayot va ijod yo'li va «O'zbekim» qasidasi; 5-sinf adabiyot darsligida Erkin Vohidov hayot va ijod yo'li va «Nido» dostoni berilgan. Akademik litseylarda esa shoirning hayoti va ijodi haqida 2 soat mobaynida bilimlar berish, o'quv dasturida belgilangan.

Demak, shoir Erkin Vohidov yaratgan xilma-xil asarlar ta'lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlikda o'rgatiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'limning quyi sinflarida shoir hayoti haqida qisqa ma'lumot berilib, 9-sinfda esa Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida o'quvchilarga to'la holda biografik ma'lumot berish zarurligi «Adabiyot» darsliklarining metodik qo'llanmalarida yoritilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

SHoir va yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish masalasi mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham istiqlool davri adabiyot o'qitish metodikasi sohasida ham izchil tadqiq qilingan. Ammo o'tgan asrning 60-90 yillari oralig'ida olib borilgan tadqiqot ishlari uchun umumiy xususiyat shoir yoki yozuvchi qiyofasini belgilashda g'oyaviylik, partiyaviylik va sinfiylik mezonlariga tayanishda ko'zga tashlanadi. Keyingi davrda ijodkorning iste'dod sohibi sifatidagi ijodiy qiyofasiga o'quvchi diqqatini tortish; insoniy qalbini, ruhiyatini yaratgan asarlari tahlili orqali his qildirish; yaratgan badiiy olamining betakrorlik alomatlarini anglatish, asarlarining o'ziga xos uslubda yaratilganligini tadqiq qilishga o'rgatish masalasi metodist olimlarining diqqat markazida turibdi. Professorlar Q.Yo'ldoshev, B.To'xliev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, K.Xusanboeva, R.Niyozmetova kabi olimlarning ayrim maqola, tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo'llanmalarida masalaga yangicha yondoshuv ko'zga tashlanadi.

Aytish kerakki, sof adabiyotshunoslik yo'nalishida Erkin Vohidov asarlari atroflicha o'rganilgan. Bular orasida professor U Normatov, N.Rahimjonovning alohida ilmiy risolalari, matbuotdagi maqolalarida ham Erkin Vohidov ijodi xususida so'z yuritilgan³.

Ammo uzluksiz ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi namunalarini o'rgatishning pedagogik va metodik qirralari yetarlicha tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Bu xususda S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, SH.Rizaevlar tomonidan yaratilgan 5- sinf «Adabiyot» darsligi va bu darslikdan foydalanish bo'yicha «Adabiyot - 5» metodik qo'llanmasi hamda S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, SH.Rizaevlar tomonidan yaratilgan 6-sinf «Adabiyot» darsligi va undan foydalanish yuzasidan yozilgan «Adabiyot - 6» metodik qo'llanmasidagi maqolalar

³ У. Норматов. Ижод сеҳри. Тошкент: Шарқ, 2009.

Н.Раҳимжонов. Мустақиллик даври шеърляти. Тошкент: Фан, 2008.

hamda «Til va adabiyot ta'limi» jurnalida turli yillarda chop qilingan ayrim chiqishlardan boshqa e'tiborga loyiq biror bir ilmiy-metodik tadqiqot yo'q.

Tadqiqotdan kuzatiladiga maqsad:

Adabiy ta'lim jarayonida xalq shoiri Erkin Vohidov ijodini ta'lim bosqichlarida o'rgatishning samarali usullari, unda ko'rgazmalilikdan foydalanish yo'llarini ko'rsatish.

BMI oldiga qo'yilgan maqsad ushbu vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi:

1. SHoir Erkin Vohidov ijodi namunalarini muayyan ta'lim bosqichlarida saboq olayogan o'quvchilar yosh, intellektual va ma'naviy-ruhiy xususiyatlariga muvofiq o'rgatish bilan bog'liq metodik muammolar tahlili.

2. Erkin Vohidov ijodini o'rgatish jarayoni samaradorligini ta'minlash omillari, metod va usullarini ko'rsatish, ko'rgazmalilikdan foydalanish va ularning samaradorlik darajasini asoslash.

3. Erkin Vohidov ijodi namunalarini didaktik tahlil qilish vositasida o'quvchilarning tahlil malakalarini, og'zaki va yozma nutqini, kitobxonlik darajasini, estetik didini, mustaqil fikrlash salohiyatlarini o'stirishga; ularda milliy va umuminsoniy tuyg'ularni yuksaltirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

4. O'quv dasturlarida belgilangan asarlar bilan birga ishda mustaqil o'qib o'rganish uchun tavsiya qilingan she'rlar tahlili vositasida o'quvchini matn mohiyatiga chuqur kirib borishga yo'llash, shoir uslubiga xos belgi va alomatlarini o'quvchilar bevosita asar matniga tayanib, mustaqil o'rganishlariga erishishda ko'rgazmalilik, interfaol usullardan foydalanish yo'llarini yoritish.

5. Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan dars ishlanmalarini tayyorlash.

Ishning ob’ektini umumta’lim maktablari, KHKlari va akademik litseylarning uchinchi bosqichida Erkin Vohidov hayoti va ijodini o’rgatish jarayoni tashkil etadi.

Ishning predmeti: ta’lim bosqichlarida shoir hayoti va ijodini uzviylik va uzluksizlikda o’rgatishning samarali usullari.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, ikki bob, besh fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

I bob. Umumiy o’rta ta’limda xalq shoiri Erkin Vohidov hayoti va ijodini o’rgatish samaradorligini ta’minlash omillari.

1.1. Boshlang’ich sinflarda shoir ijodini o’rgatish holati.

Jamiyatimiz ma’naviy hayotini yuksaltirish bevosita yoshlarni barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazish masalasi bilan chambarchas bog’lanadi. Ta’lim bosqichlarida el hurmatiga sazovor bo’lgan, hayot yo’li yoshlar uchun ibratga aylangan, asarlari esa ular ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi so’z san’atkorlari ijodini o’rgatish adabiy ta’limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng ta’lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar va an’analarni joy-joyiga qo’yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish borasida jiddiy tadbirlar amalga oshirildi. “O’zbekiston kelajagi buyuk davlat” shiori ostida mustaqil davlatimiz kelajagini yaratuvchi yoshlarni har jihatdan barkamol shaxslar sifatida shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

Adabiyot darslarida ta’lim-tarbiya jarayonining o’quvchi shaxsini har jihatdan rivojlantirishga qaratilganligi ham jamiyatimiz hayotida ma’naviy yuksaklikni ta’minlash bilan bog’liq vazifalar sirasiga kiradi. Badiiy asarlar o’qituvchi yoki o’quvchilar tomonidan, ko’pincha, to’liq, ba’zan parcha holida o’qilishi va faqat matnga tayangan holda tahlil tsilish lozim. Badiiy asarlar

bevosita o'quvchilarning o'zlari tomonidani idrok etilishiga katta e'tibor berilishi kerak.

O'quvchini o'qitishga emas, balki uni o'qimasa turolmaydigan ruhiy-pedagogik holatga keltirishga urinish lozim.

Ma'kumki, badiiy adabiyotda bitmas-tuganmas ma'rifiy, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik tarbiya imkoniyatlariga ega. Xususan, Erkin Vohidov kabi el ardog'idagi xalq shoirning hayoti va ijodini o'rgatish ta'lim bosqichlarida uzviylik va uzluksizlikda o'rgatish qator ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bilan bog'lanadi.

Yuksak iste'dod egasi xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'quvchilarga o'rgatishga o'quv dasturi va darsliklarda alohida e'tibor qaratilgan. SHoir ijodi namunalari o'quvchilar o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, mustaqil fikrini, nutqi va dunyoqarashining o'sishiga, badiiy adabiyotga mehr-muhabbati ortishiga; el hurmatiga sazovor ijodkorlardan ibrat olib yashashga, yaratuvchanlikka da'vat qilishi ko'zda tutilgan holda qator she'rlari va dostonlaridan parchalar, ayrim asardan esa o'qib o'rganish uchun darsliklarda berilgan, tavsiya qilingan.

Erkin Vohidov ijodi va yaratgan asarlar adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, ularning estetik didini o'stirishga xizmat qilishi sababli ta'lim-tarbiya amaliyotida ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'lim bosqichlarida shoir yoki yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish muayyan didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni o'z ichiga oladi. SHoir ijodi namunalari vositasida o'quvchilar badiiy asar bilan tanishadilar. Uning ta'sir qudrati ila go'zallik va nafosat olamiga kirib boradilar. Badiiy asarga xos obrazlilikni, obrazli ifoda zamiridagi ma'nolarni anglashga o'rganadilar. Badiiy so'z ustalari tasvirlagan manzara insoniy kechinmalar mazmunini tushunishga, shoir tuyg'ularini o'z ko'nglida his qilishga o'rganadilar. Ayni damda, har bir

san'atkor yaratgan asarlar orqali uni tanishga erishadilar. So'z san'atkorlari o'quvchi ko'z o'ngida betakror, o'zigagina xos qiyofasi bilan gavdalanadi. SHoir qiyofasi, ko'ngil olami, quvonchu iztiroblari yaratgan asarlari ruhidan his qilib anglanishi tufayli E.Vohidov, kabi qator so'z san'atkorlar hayoti bilan shaxsi o'quvchilar uchun namuna va ibratga aylanadi. Bunday ijodkorlarning tarjimai holiga oid uzun ma'lumotlardan ko'ra badiiy barkamol asarlari o'quvchilar qalbiga tezroq yo'l topadi, estetik ta'sir ko'rsatadi.

SHu bois ta'lim bosqichlarida el hurmatiga, xalqimiz mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan ijodkorlar yaratgan asarlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatila borish muhim pedagogik muammolardan hisoblanadi.

Ta'lim bosqilarida O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ijodining namunalari 2-3-sinflarda "O'lka", "Olma", "Gilos", "O'zbekim" qasidasidan parcha o'qib o'rganishdan boshlansa, 5-sinfda "Nido" dostonini, 6-sinfda esa "O'zbekim" qasidasini to'liq o'rganishni o'z ichiga oladi.

2-sinf "O'qish kitobi"ga e'tiborni qaratsak, unda shoirning "O'lka" va "Olma", "Gilos" kabi she'rlari o'rin olganligini ko'ramiz. "O'lka" she'ri darslikning "Ona yurtim – oltin beshigim" rukni ostida berilgani bois, o'quvchilarning tug'ilib o'sgan yurtiga mehr, el-yurtidan faxrlanish va g'urur tuyg'ularini o'stirish kabi tarbiyaviy maqsadda o'rganiladi. Mazkur she'rni ifodali yod o'qib berish orqali o'qituvchi Vatan tuyg'usini o'quvchiga his qildirishga erishadi. She'rning birinchi bandidagi "Bog'laringni sayr etganimda sen bor eding qallda, Vatanim" misralari shoirning qalbida jo'sh urgan Vatanga mehr hissini obrazli ifoda etishi; yer yuzidagi yuz ming millat, elat farzandlari ham shoir kabi o'z Vatanini eng go'zal, eng maftunkor yurt deya uning bog'lari, daraxtu tog'larini o'z tilida madh etadi. Har bir niholu daraxtini shu yurtning bir qismi sifatida e'zozlaydi, yurt go'zalligini tarannum etadi:

"Jilmayadi o`zida yo`qq shod

Yangi oy ham ketmay qoshingdan

Etak-etak olib koinot

Yulduzlarni sochar boshingdan”

misrasi lirik kechinma yakunini ifoda etadi. O'qituvchi ko'kdan Vatan husniga lol jilmayib turgan yangi oy; yulduzlarni “etak-etak olib” ko'kdan sochayotgan koinot tasviriga xos obrazlilikni o'quvchilarga tushuntirishda shoir qo'llagan tasviriy vositalarga izoh berib o'tsa matnning tushunarli bo'lishi ta'minlanadi. SHoirning o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, poetik ko'chim, sinekdoxa usulida tasvir yaratish mahorati tufayli she'rning ta'sirchanligi ta'minlanganligi asoslanadi. SHu yo'l bilan o'quvchilar E.Vohidov qalamiga mansub “O'lka” she'rini mexanik tarzda, hissiz, tushunmasdan o'qib qo'ya qolmay, uni badiiy asar sifatida ta'sirlanib, tushunib, hayajon bilan ifodali o'qishga o'rganadilar. Buning uchun she'rni, unda ifodalangan poetik fikrning ma'nosini to'la tushunishga yo'llovchi savollardan foydalanish zarur, albatta. Afsuski, darslik mualliflari matndan obrazli ifodalar ma'nosini o'quvchi tushunib olishiga yordam beruvchi savollar o'rniga “SHe'rni yod oling” degan birgina o'quv topshirig'i berish bilan cheklanganlar.

Darslikning “Oltin kuz – hosiling yuz” rukni ostida berilgan E.Vohidovning “Olma”. “Gilos” kabi she'rlari 2-sinf o'quvchilari yoshiga, qiziqishlari va tasavvurlar olamiga mos. Har ikki she'r yosh kitobxonlarda quvnoq kayfiyat uyg'otadi. Olma tilidan: “Xomligimda olmangiz, Nortojiga o'xshab so'ng voy qornim, deb qolmangiz!” – deya ogohlantiruvchi misralarning yumorga boyligi bolalar ruhiyatiga yaqinligi uchun ta'sirchanlik kasb etadi. Gilosning: “Topsang qo'shalog'imni, qulog'ingga taqib ol”, - deya murojaat etishi ham kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvurlarini boyitadi, obrazli fikrlashga o'rgatadi. Ushbu she'rlar matni ketidan ham bir necha tahlilga yo'llovchi savollar berilganda, o'quvchilar obrazli nutq va tasviriylik, jonlantirish usulida obraz yaratish orqali badiiy ijodda ta'sirchanlikka erishish kabi boshlang'ich nazariy tushunchalarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'lar edilar. Holbuki, muayyan she'rni shunchaki

o'qish bilan uni tushunib, zavqlanib o'qish orasidagi farq juda katta ekanini yaxshi bilamiz.

3-sinf "O'qish kitobi"da O'zbekiston qahramoni Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasidan parcha o'rganiladi. She'rda ming yillardan ortiq tarixga ega, boy madaniy, ma'naviy merosi ila dunyoga dong'i ketgan yurtimizga, uning insonparvar, mehmondo'st xalqiga, buyuk ajdodlariga nisbatan mehr, g'urur tuyg'ulari yuksak pafosda ifodalangan. Ayni his-tuyg'ularni o'quvchi o'z qalbidan kechirib, ko'nglida Vatanga, ota-bobolariga, eliga mehr-iftixorni tuyishi uchun she'rni ifodali o'qishga o'rgatish zarur. She'r satrlariga singishgan ma'nolarni his qilib anglash vositasida o'quvchilar shoir kechinmalariga kechinmadoshga aylanadilar. Lirik qahramonning o'z xalqi va uning tarixidan, yetuk allomalari qoldirgan ilm-fan obidalaridan, ma'naviy xazinamizdan faxrlanish hissi o'quvchiga yuqadi, uni hayajonga soladi. SHu o'rinda she'rning har bandi bo'yicha tahlilga yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish o'rinli:

"Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhhon o'zbekim.

Senga tengdosh Pomiru,

Oqsoch Tiyonshon ozbegim".

Xalqimizning ming asrlik tarixi, Pomiru Tiyonshonga tengdoshligini ta'kidlash orqali shoir nima demoqchi? O'zbekning "ming asrlar ichra pinhon" tarixi qanday ma'noni ifoda qiladi? Nima uchun shoir

"So'ylasin Afrosiyobu

So'ylasin O'rxun xati",

deya murojaat qilmoqda? Afrosiyob, "O'rxun xati" haqida nimalarni bilasiz?

"Al-Beruniy, al-Xorazmiy,

Al-Farob avlodidan.

Asli nasli balki O`zluk,

Balki Tarxon, O`zbekim”, - misralarida Beruniy, Xorazmiy, Forobiy kabi ulug’ allomalar nomining tilga olinishi sababini izohlay olasizmi?

“Tuzdi-yu Mirzo Ulug’bek

Ko`ragoniy jadvalin.

Sirli osmon toqiga ilk –

Qo`ydi Narvon, o`zbekim”, - she’r bandi mazmunini o’zingiz tushunganday sharhlab bering. Mirzo Ulug’bek, “Ko’ragoniy jadvali” qanday ma’noni ifoda qiladi? Nima uchun shoir “Sirli osmon toqiga ilk qo’ydi narvon, o’zbekim”, deya faxr iftixor, g’urur tuyg’ularini baralla ifoda etmoqda? Keyingi banddagi Mir Alisher na’rasi jahon uzra aks-sado berganligini bir qadar mubolag’ali ifodalash vositasida shoir qanday ma’nolarni kashf qilgan? Darslikdagi parchaning so’nggi bandini o’z so’zlaringiz bilan sharhlang.

O’quvchilar fikrlarini tinglash jarayonida o’qituvchi muayyan o’rinlarda javoblarni to’ldiradi, umumlashtiradi. She’rda ta’sirchanlikni oshirish maqsadida qo’llangan tasviriy vositalarga e’tiborni qaratishni tavsiya qilamiz. O’xshatish, jonlantirish, mubolag’a kabi she’riy san’atlar haqida qisqa nazariy ma’lumot bersak, o’quvchilar she’r matnini yetarli darajada tushunib oladilar, she’r misralarida qo’llangan “Oqsoch Tiyonshon, So’ylasin Afrosiyob, qo’ydi Narvon, o’zbekim, Alisher na’rasi, sirli osmon” kabi so’z birikmalari vositasida ifoda qilingan ma’nolar mohiyatini to’la anglash imkoniga ega bo’ladilar. SHoir o’y-kechinmalarini she’rda muayyan tasviriy vositalar, she’riy san’atlardan foydalanib mahorat bilan ifodalay olsa, ta’sirchanlik, obrazlilik ta’minlanishi haqidagi bilim va tushunchalarni o’zlashtiradilar. Natijada, ta’lim va tarbiya samaradorligi ta’minlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuksak badiiy didni imkon qadar erta shakllantirish haqida uzoq vaqtdan buyon yoshlar orasida kitobxonlik muammolari hamda o'quvchilarda estetik didni qaror todirishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan mutaxassis I. I. Arkinning: "Agar bolalar birinchi sinfdaliklaridan boshlab, adabiy asarlarni san'at hodisasi sifatida o'qish va qabul qilishga, badiiyat mezonlari bilan o'lchashga, ...chin san'atni qalbakisidan ajratishga o'rgatilsa, agar adabiyot bilan uning yaxlitligi va sistemaliligiga amal qilgan holda butun maktab yillarida shu zaylda shug'ullanilsa, beshinchi sinf o'quvchilari yuksak san'at asarlarini bemalol qabul qiladigan bo'lishadi. Afsuski, biz dohiy san'atkor bolalarga qancha erta yetib kelsa, kichkintoylarning kitobxon sifatidagi, demakki, ma'naviy-ruhiy jihatdan ulg'ayishlari ham shuncha tez ro'y berishini hanuzgacha tushuna olmaymiz"⁴, - tarzidagi mulohazalari diqqatga loyiq.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturida⁵ o'qish mavzuidagi va ularga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilganidan tashqari 1-4-sinflarda badiiy asarlarni o'qib o'rganish jarayonida nutq o'stirish – asosiy didaktik maqsadlardan biri ekani uqdirilgan. Sinfdagi o'qish va nutq o'stirish uchun 1-sinfdagi 68 soat; 2-sinfdagi 136 soat; 3 va 4-sinflarda 153 soatdan ajratilgan. Dastur talabiga ko'ra 1-2-sinflarda "muayyan matnni o'quvchi tomonidan ongli, ya'ni tushunib o'qish ko'nikmasini shakllantirish; bunda matndagi so'zlar va gaplar ohangiga, to'xtamlariga, tinish belgilariga rioya qilib qiroat bilan o'qish 5-6 she'rni yod olish; matnni o'qib, qayta hikoya qilish; asar yuzasidan darslikda va o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob olish; asarning mavzu doirasini aniqlash; sarlavhani asardagi asosiy fikr bilan taqqoslash; asar yuzasidan fikr bildirishga o'quvchilarni o'rgatish; asarni qismlarga ajratish; unda ishtirok etgan qahramonlar haqida fikr bildirish, o'zaro taqqoslab, oddiy tavsif berish; nima yaxshi, nima

⁴ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9 sinflar). – Yangiyo'l: "Yangiyo'l poligraf service", 2010. 62- bet.

⁵ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9 sinflar). –Yangiyo'l: "Yangiyo'l poligraf service", 2010. 62- bet.

yomonligini dalillash; asarlarni mavzu doirasiga ko'ra guruhlash; qo'llanilgan so'zlar ma'nosini izohlashga o'rgatish, badiiy ifodalar, tasvirlarga bola diqqatini qaratib, ularni o'quvchi nutqiga kiritish bayon qilingan"⁶.

Ayni damda, muayyan matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, og'zaki nutqini rivojlantirish, o'qish texnikasini o'rttirish; matnning asosiy mazmunini o'zlashtirish qatorida matnda qatnashuvchi shaxslarni, tabiat manzaralarini tahlil qilish; ertak, she'r, hikoyalarni janriy xususiyatlariga ko'ra farqlash ko'nikmasini tarkib toptirish ham talab etiladi. Demak, dastur talabiga ko'ra boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarda sodda nazariy tushunchalarni shakllantirib borish ko'zda tutilishi lozim. Bular badiiy matnga xos obrazlilik; badiiy asar markazida xilma-xil insonlar tasviri turishi, ya'ni badiiy adabiyot insonshunoslik ekani; obrazlar asardagi inson yoki boshqa narsa-predmetlar, jonivorlar tasviri ekanligi; ular insonga xos xususiyatlarni badiiy gavdalandirib, uning ruhiyati, his-kechinmalari, xarakter qirralari, yaxshi yo yomon xislatlarini ifoda qilishi; asar sarlavhasi uning bosh g'oyasi mohiyatini ixcham tarzda ifoda etishi; sarlavha

asar tuzilishiga xos vosita ekanligi, u mazmunni anglash "kaliti" vazifasini o'tashi; nasriy asar epik bayon tarziga asoslanishi, unda voqealar muallif bayoni yoki qahramon nutqi vositasida ifoda qilinishi; lirik asarlar esa she'riy usulda yozilishi; unda lirik qahramon kechinmalari, his-tuyg'ulari ifodasi yetakchilik qilishi janr xususiyatlariga bog'lab oddiy, sodda shaklda tushuntirilishi kerak.

2-sinf "O'qish kitobi"ga kiritilgan xalq shoiri Erkin Vohidovning "O'lka" she'rini o'qib o'rganish jarayonida ham ayni talablardan kelib chiqib matn bilan ishlanadi. Avval she'r o'qituvchi tomonidan ifodali yod o'qib beriladi. Yod o'qish vositasida o'qituvchi she'rda ifodalangan his-tuyg'ularni, Vatanga muhabbat, el-yurtiga mehr hissini o'quvchiga yuqtira oladi. O'quvchilar she'rda

⁶ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9 sinflar). –Yangiyo'l: "Yangiyo'l poligraf service", 2010. 62- bet.

ifodalangan badiiy fikrni – uning g’oyasini ifodali o’qish orqali ilk bor she’rni hissiy anglash imkoniga ega bo’ladilar. “Bog’laringni sayr etganimda Sen bor eding qalbda, Vatanim” misrasidan boshlab Vatan tuyg’usi har bir inson qalbida go’daklikdan boshlab unib, ulg’ayishiga e’tibor qaratiladi. Go’dak ona yerga ilk qadam qo’ygan chog’dan boshlab, uning go’zalliklariga oshno bo’ladi, bahra oladi, ne’matlarini totib ko’radi, mehr qo’yadi. Hatto ona yerda o’sib ungan ming xil daraxt ham shu zaminda ildiz otgani uchun uni hamisha madh etadiganday tuyuladi. SHoir o’z tasavvurlarini obrazli ifodalab: “... Nur emadi millionlab ko’zlar ko’kdan sening husnigga qarab”, - deb yozadi.

Keyingi misralarda esa bu tasavvurlar obrazli ifodalar. Tasvirdagi jonlantirish, mubolag’a kabi vositalar orqali yanada ta’sirchanlik kasb etadi:

“Jilmayadi o’zida yo’q shod

Yangi oy ham ketmay qoshingdan.

Etak-etak olib koinot

Yulduzlarni sochar boshingdan”.

She’r ifodali o’qilgach, matn tahliliga yo’naltiruvchi savollar bilan o’quvchilarni “Zinama-zina” usulida fikrlashga undash mumkin:

1. *Bog’larni sayr etgan shoir qalbida Vatan borligini his qilishi qanday ma’nolarni anglatadi?*

2. *“Nur emadi millionlab ko’zlar” misrasi ma’nosini izohlay olasizmi?*

3. *Yangi oyning jilmayishini tasavvur qilib ko’ring. Nima uchun shoir oyni aynan “jilmaytirib” tasvirlayapti?*

4. *“Jilmayadi o’zida yo’q shod Yangi oy ham ketmay qoshingdan” misrasida qo’llangan jonlantirish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qanday ma’noni ifodalashda qo’llanilgan?*

5.Koinotning “etak-etak olib... yulduzlarni boshidan sochishini” siz qanday tasavvur qildingiz? Ushbu misra ma’nosini tushuntirishga harakat qiling.

SHe’r tahliliga yo’naltiruvchi savollarga o’quvchilarning har qanday javobi qabul qilinishi, ular o’qituvchi tomonidan to’ldirilishi lozim. muhimi, o’quvchilar she’rdagi poetik tasvirni tasavvur qilib, zavqlansinlar, uning ma’nosini idrok etsinlar, o’z tasavvurlaridan tug’ilgan fikrlarni esa og’zaki bayon etishga o’rganib bersinlar.

O’quv faoliyati bosqichlari bo’yicha belgilangan maqsad	O’quv material yuzasidan savol va topshiriqar	Topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatmalar	Ajratilgan vaqt	Ko’zlangan natija
I bosqich maqsadi: SHe’rni ifodali o’qishga o’rgatish va uning mazmuni ongli idrok etilishiga erishish.	E.Vohidovning “O’lka” she’rini ifodali o’qing. SHe’rdagi obrazli tasviriy ifodalarni ajratib yozing. Ular ma’nosini izo’lashga harakat qiling. jonlantirish, o’xshatish, mubolag’a kabi tasviriy vositalar haqida o’qituvchingiz bergan nazariy ma’lumotlarga tayanib, she’r matnidagi ularga misollar toping.	SHe’r matnidan ajratib yozgan obrazli ifodalarga misollaringiz asosida shoir fikrlarini, she’r g’oyasini o’z so’zlaringiz bilan bayon qiling. “Bog’ husni, she’r bitmoq, nur emadi, jilmayadi Yangi oy, etak-etak yulduzlar” qanday ma’nolarni ifoda etishga qo’llanilganiga e’tiborni harating.	15 daqiqa	O’quvchilarni she’rga xos obrazlilikni his qilib anglashga o’rgatish; muayyan nazariy tushunchalarni shapkllantirish; matn utsida ishlash malakasi tarkib topadi.
II. bosqich maqsadi: SHe’r matni utsida ishlash.	SHe’rni o’qiyotganingizda qanday kechinmalarni his qildingiz? Matnda qo’llangan so’z yoki so’z birikmalari ma’nosini izo’lab bering. SHoir ifodalangan fikr va kechinmalarni qanday	SHe’rda shoirning Vatanga mu=abbat tuyg’usi ko’tarinki tarzda, obrazli tasviriy vositalar yordamida ta’sirchan ifoda qilinganiga ahamiyat bering. Ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qilgan vositalarni aniqlab, ular orqali qanday ma’nolarni tushunib olganligingizni o’z so’zlaringiz	10 daqiqa	O’quvchilar og’zaki nutqi va mutsaqil ijodiy fikrlash salohiyati o’sishiga, Vatanga muhabbat tuyg’usi yuksalishiga erishiladi.

	tushundingiz?	bilan bayon qiling.		
--	---------------	---------------------	--	--

Darsni ikki yoki besh bosqichli “modulli texnologiya” asosida namunada keltirilganday dasturlash mumkin. Hamkorlikda ishlash dasturini tuzishda aniq maqsadni belgilab olish; har bir o’quv topshirig’i yoki o’quvchini fikrlashga undovchi savollar ustida ishlash uchun qat’iy vaqt belgilanishi; topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko’rsatmalar ishlab chiqilishi ta’lim samaradorligi ta’minlanishiga ta’sir ko’rsatadi.

O’quv faoliyati bosqichlari	O’quv material yuzasidan savol va topshiriqlar	Topshiriqni bajarish bo’yicha ko’rsatmalar	Ajratilgan vaqt
I bosqich maqsadi: O’quvchilar she’rni ifodali o’qishga va uning mazmunini o’zlashtirishlariga erishish	E.Vohidovning “O’lka” she’rini ifodali o’qing. Obrazli ifodalarni ajratib yozing. Jonlantirish, o’xshatish, mubolag’a kabi tasviriy vositalarni ko’rsating.	SHe’rdagi obrazli ifodalar bog’ husni, she’r bitmoq, nur emadi, jilmayadi yangi oy, etak-etak yulduzlar... orqali shoir qanday badiiy fikrni ifoda qilganligiga e’tiborni harating.	15 minut
II. bosqich maqsadi: SHe’r matni utsida ishlash.	SHe’rni o’qiyotganingizda qanday kechinmalarni his qildingiz? SHe’rning birinchi bandida ifodalangan ma’nolarni izohlang.	SHe’rda shoirning Vatanga mehr tuyg’usi ko’tarinki tarzda ifoda etilganiga ahamiyat bering.	10 minut
III. bosqich maqsadi: O’quvchilar nutqini o’tsirish; ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish, Vatanga muhabbat tuyg’usini yuksaltirish.	SHe’r bandlarini sharhlab o’qing. qaysi misralar ko’nglingizda zavq-shavq tuyg’usini uyg’otdi?	SHoir kechinmalari Sizga qanday ta’sir qilganini o’z so’zlaringiz bilan bayon qiling. qanday holatlarda qalbda Vatan tuyg’usini his etasiz? SHu haqda fikr bildirishga urinib ko’ring.	
IV. bosqich maqsadi: O’quvchilar og’zaki nutini o’tsirish; mutsakil fikrlashga o’rgatish; Vatanga muhabbat tuyg’usini yuksaltirish.	SHe’r bandlarini sharhlab o’qishga kirishing. har bir bandida shoir ifodalagan poetik fikrni o’zingiz tushungan, his qilgan holatga asoslanib bayon qiling. qaysi misralar ko’nglingizda zavq-shavq tuyg’usini uyg’otdi?	Bu topshiriqni bajarishda she’r matnida qo’llangan so’zlar va ular orqali ifodalangan ma’nolarni yoritishga harakat qiling. SHoir bog’larni sayr qilib: “Sen bore ding qalbda Vatanim”, deganida nimani nazarda tutganini o’z tuyg’ularingizga tayanib izohlang. Vatan tuyg’usi shoir tasavvurida daraxtlar, osmon, yulduzlar, yangi oy timsolida jilvalanishi matnda qanday obrazli tasvirlangani, bu tasvir Sizga qanday ta’sir	10 minut

		ko'rsatganini og'zaki bayon qiling.	
V. bosqich maqsad: Dars yakunlanadi.	O'quvchilar javoblari umumlashtiriladi, to'ldiriladi. Yakuniy xulosa bayon etiladi.	Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.	5 minut

Ushbu modulli texnologiya loyihasi ham xuddi dars loyihasi singari tuzilishiga ega bo'lib, o'qituvchilar uchun juda qulay. Chunki unda darsning maqsadlari va bu maqsadga yetib borish bosqichlari aniq ko'rsatiladi. Ta'lim-tarbiya natijalari samaradorligi kafolatlanadi.

Nutq o'stirish – boshlang'ich ta'limning o'zak masalalaridan hisoblanadi. O'quvchilar nutqi oilada, maktabda, jamoada o'zaro fikr almashish, suhbat dialog, muayyan mavzuda bahs-munozara, savol-javob shakllarida voqe bo'ladi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda ifoda etiladi. O'quvchi tafakkuri, idroki, tasavvuri, his-kechinmalari fikrni qo'zg'asa, nutq ayni o'y-fikrlarni ifoda qilish vositasiga aylanadi. Bunda o'quvchining o'z qarashlarini bayon tarzida ifoda etishi kuzatilsa, yozma nutqda ushbu bayonning grammatik, punktuatsion, stiliktik jihatlardan ravon, mazmunli, izchil va to'g'ri ifoda etilishi nazarda tutiladi. O'quvchida fikr uyg'otish, unga aqliy-hissiy ta'sir ko'rsatish natijasida yuzaga kelgan fikrlar tafakkurda muayyan shaklga ega holda nutqqa ko'chadi. Shu bois fikrning o'quvchi ruhiyati bilan bog'liq shaklga aylanish jarayoni masalaning psixologik jihatlari hisoblanadi. Tez ta'sirlanuvchan bolalarda his-kechinmalar va fikr ham tez uyg'onadi, ammo bunday holatda ular fikrning ifoda shaklini zudlik bilan topishga qiynaladilar. Natijada o'z fikrlarini pala-partish, tartibsiz, shoshilib ifoda qiladilar, nutqda qator xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Bahs-munozaralardan chetda turuvchi, talashib-tortishishni xushlamaydigan, ochiq muloqotga kirishishdan ko'ra davraning "u tomonida" turishni ma'qul ko'ruvchi, "chetdan kuzatuvchi" bolalarning ta'sirlanishi sust kechsa-da, ular o'rtoqlarining fikrlarini tinglab, o'z qarashlariga solishtirib ko'rgach, munosabat munosabat bildirishlari mumkin. Bunday toifaga kiruvchi o'quvchilar o'z fikrini aytishga shoshilishmaydi, his-hayajonlarini ham yaqqol sezdirmaydilar. Boshqa

guruhga mansub o'quvchilar boshlang'ich sinflarda kam uchraydi: ular o'qituvchi bergan savolga o'ylab, shoshilmasdan javob beradilar; o'z fikrlarini og'zaki va yozma nutqda ravon, mazmunli, mantiqli va ta'sirchan ifodalashga intiladilar. Bunday o'quvchilar kitob o'qishni yaxshi ko'radilar, ayniqsa badiiy asarlarni sevib mutolaa qiladilar. Ularning bog'lanishli nutqi kitobxonligi sababli ancha rivojlangan, fikrlash salohiyati yuqori, bayon tarzi izchil, og'zaki va yozma nutqi standart talablarga javob beradi.

Anglashiladiki, bir sinfdagi 20-30 o'quvchi xilma-xil xarakter, idrok, ruhiyat va tafakkur egalaridir. Ularning og'zaki va yozma nutq darajasi ham turli rivojlanish ko'rsatkichlariga ega. Ayni holatni hisobga olib, o'qituvchi har bir o'quvchining nutq darajasi ko'rsatkichlarini belgilab borishi lozim. Har oy oxirida o'quvchi nutqining o'sish darajalari belgilab beriladi. yetarli bo'lmagan ko'rsatkichlar bo'yicha o'quvchi bilan alohida ish olib boriladi. Bu ko'rsatkichlarni quyidagicha belgilash tavsiya qilinadi:

1. Kichik hajmdagi matnni o'qish tezligi.
2. Matn bo'yicha savollarga qaytargan to'g'ri javoblar soni.
3. O'quvchining bog'lanishli nutqi (og'zaki va yozma shakllardagi nazoratlar natijasi)
4. Yozma nutq bo'yicha berilgan o'quv topshiriqlari va nazorat ishlari natijalari bo'yicha to'plagan ballari.
5. O'quvchining muayyan matn mazmunini qayta hikoyalash va bayon qilish darajasi.
6. Kitobxonlik darajasi (mustaqil o'qilgan badiiy asarlar soni; asar haqida o'z mustaqil fikrini bayon qila olishi; asar voqealari bilan qahramonlariga munosabat bildirish darajasi).

Belgilangan darajalardan qaysi biriga o'quvchi imkoniyatlari yo faoliyati javob bermasa, o'quvchi yordamchi topshiriqlar vositasida bu ko'rsatkichni

ko'tarishda hamkorlikda ish olib borishi lozim. SHu yo'l bilan o'quvchilarning standart talablariga javob berish samaradorligi ta'minlanishiga erishiladi.

Hamkorlikdagi pedagogik faoliyat mohiyatini ta'lim maqsadlariga erishishdagi o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari tashkil qiladi. Bu faoliyatni hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga aylantirish ko'zda tutiladi. O'quvchi bilimlarni o'zi intilib, izlanib ehtiyoji va istagiga ko'ra o'zlashtirishga kirishar ekan, uning hamkori – o'qituvchi bu faoliyatning samarali kechishiga ta'sir ko'rsatib boradi; o'quvchi o'qib o'rganishi, o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va tushunchalar, shakllantirish ko'zda tutilgan ko'nikma va malakalarning tarkib topishida ko'maklashadi. Ammo bu hamkorlik an'anaviy ta'limdagi kabi tayyor bilimlarni tushuntirish yo'li bilan o'quvchiga yetkazishni emas, yangi bilimlar o'zlashtirilishi o'quvchining faolligi asosiga, uning shu bilimlarni o'z faoliyati jarayonida o'zlashtirilishini taqozo etadi. Hamkorlikdagi faoliyat o'quvchini faoliyatsizlikdan ta'lim va tarbiya jarayonining ishtirokchisiga, faol fikrlovchi, amaliy ish olib boruvchi o'qituvchining hamkoriga aylantiradi.

Erkin Vohidovning “Olma”, “Gilos” she'rlari 2-sinfda o'qib o'rganilar ekan, bu she'rlarning bolalar xayolotiga, 7-8 yoshli o'quvchilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish xususiyati e'tiborga olinishi kerak. She'r sodda badiiy tilda bitilgan obrazlilik va jonlantirish, o'xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qo'llanganligi sababli olma va gilos kichik kitobxon bilan go'yo so'zlashadi, xomligida uzmaslikka, Nortojiga o'xshab so'ng “Voy, qornim deb qolmaslikka. Gilos ham o'z sifatlarini birma-bir “so'zlar” ekan, bolalarni o'zi kabi totli, “mazasi bol” bo'lishga go'yo chorlaydi. “Topsang qo'shalog'imni qulog'ingga taqib ol” misrasi esa aynan bolalarga xos odatni, sho'x xandonlik qayfiyatini, bolalarcha zavq-shavqni ifoda qiladi.

1.Xo'sh, nima uchun Siz qo'shaloq gilosni qulog'ingizga taqib olgingiz keladi?

2. Gilosning da'vati qanday ma'noni anglatadi?

3. Gilosning sifatlariga o'zingizdagi qaysi odatlar yoki xususiyatlarni qiyoslay olasiz?

1.1-ILOVA

2-sinf O'qish darsi

Mavzu: Erkin Vohidovning «O'lka» she'ri o'rganish.

Dars maqsadi: 1. SHe'r mazmuni bilan tanishtirish, o'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini o'stirish, she'r matni asosida badiiy obraz va obrazlilik haqida tushuncha berish.

2. O'quvchilarni vatanparvarlik, milliy an'analarga sado'at ru'ida tarbiyalash, ularning og'zaki nutqi va tafakkurini uy'unlikda rivojlantirish.

Dars metodi: tushuntirish, ifodali o'qish. "Interfaol" metodning «Klatser» hamda «Munozara» usullaridan foydalanish.

Dars ji'oz: «O'qish» darsligi, mavzuga oid rasmlar. Krossvordli plakatlari, «Vatan» diafilmi, test, tarqatma materiallar.

Dars turi: Noan'anaviy.

Darsning borishi: Dars E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasidan yod o'qish bilan boshlaydilar:

"Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon o'zbekim.

Senga tengdosh Pomiru,

Oqsoch Tiyonshon o'zbekim".

“Al-Beruniy, al-Xorazmiy,

Al-Farob avlodidan.

Asli nasli balki O‘zluk,

Balki Tarxon, O‘zbekim”,

Sinf o‘quvchilari o‘z xo‘ishlari bilan 4 xil meva: anor, olma, uzum, beqilardan birini tanlab, shu meva nomi yozilgan tsolga borib o‘tiradilar va qo‘llaridagi meva nomi va xususiyati she`riy usulda tavsiflangan kartochkani ajratib, ifodali ы?ib beradilar.

Masalan:

Marjon-mardon yumaloq,

Yaproqlari shapaloq,

Qizil, sariq, yashil, oq,

Yeb ko‘rmasdan o‘ylab boq.

Sen ayt-chi, sizim Gulsum,

Bumi dadajon uzum...

O‘qituvchi ularni qo‘llaridagi meva turlariga harab, markazlarga chorlaydi. har bir markaz o‘z shiorini e‘lon qiladi:

«O‘qish markazi»: “Nimaiki qilsang tilak, bariga o‘qish kerak”.

«Ona tili markazi»: “Ona tilim – jonu dilim, sensiz nafas olmas elim”.

«Matematika markazi»: “Matematika fanlar ichida shoh, uning sirlaridan bo’lingiz ogoh”.

“«San’at markazi»: San’atsiz hayot – vahshiylikdir”.

har guruhdan ikki o’quvchiga 2 ta test beriladi, guruhlardagi boshqa o’quvchilarga esa o’quv topshiriqlar tarqatiladi.

1. «O’quv markazi»: Erkin Vohidov tug’ilgan yil va joy nomini yozuv taxtasida bayon qiladilar.

2. «Ona tili markazi»dagilar esa Erkin Vohidov hayoti va ijodiga oid boshqa ma’lumotlarni bayon qiladilar.

3. «Matematika markazi» o’quvchilar shoir ijod yo’lining asosiy davrlari, she’riy to’plamlari haqida ma’lumot beradilar.

4. «San’at markazi» o’quvchilarni Erkin Vohidov ijodidan mustaqil o’qish uchun tavsiya qilingan she’rlaridan yod o’qib beradilar.

Testlardan namunalalar.

1. «Vatan» degandan nimalarni tushunasiz?

A. «Biz tug’ilib o’sgan maskan» V. «Kindik qonimiz to’kilgan zamin» D. «A va B javoblar to’g’ri»

2. Bizning Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?

A. Toshkent V. O’zbekiston.

D. Qozog’iston.

Tetsni to’g’ri bajargan o’quvchi rag’batlantiriladi.

O’tilgan mavzuni so’rash.

Bizning vatanimizning poytaxti qae?

Toshkent qanday shahar?

Nima uchun Toshkentni tinchlik va do'stlik shahri deymiz?

«O'qish markazi» o'tgan mavzuga doir «Boshqotirma»ni yechadi.

V	A	T	A	N		
		O	L	M	A	
	O	SH	X	O	N	A
	I	K	K	I		
	SH	E	R			
	O	N	A			
		T	O	V	U	S

1.Biz tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan zamin.

2.Temir moddasiga boy meva.

3.Ovqat tayyorlanadigan joy.

4.Yomon baho.

5.Hayvonlarning shohi.

6.Mo'tabar zot.

7.Eng chiroyli qush.

Ona tili» markaziga bir necha tayanch so'zlar beriladi va ular shu so'zlar

ishtirokida ijodiy ish yozadilar.

Salom, xonadon, o'lka, hurmat, poytaxt, jamoat, poezd. (bu so'zlar varaqchalarda tarqatiladi).

«Matematika markazi»ga Bizning vatanimizda nechta viloyat borligini yozib, soʻzlab berish topshiriladi.

«Sanʼat markaziga» esa Vatanni aks ettirishga doir biror rasm ishlash topshiriladi.

Markazlarning javoblari va ishlari baholanib boriladi. Kam ball yigʻan markazlar uchun yana bir imkoniyat «Aqliy hujum» tashkil etiladi.

«Vatan»ga oid bir diafilm qoʻyib beriladi va shu yuzasidan qisqa suhbat oʻtkaziladi.

Suhbatdan maqsad: oʻquvchilarni Vatanimizga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalash.

Oʻtilgan mavzu markazlar tomonidan juda yaxshi bayon qilindi.

- Aziz bolalar! Vatan biz tugʻilib oʻsgan diyordir. har bir kishining aziz va moʻtabar vatani boʻladi. Biz Oʻzbekiston nomi bilan dunyoga mashhur boʻlgan goʻzal Vatanda yashaymiz. SHunday ekan, oʻquvchilar oʻzimizning Vatanimizni sevishimiz, unga munosib farzand boʻlishimiz kerak.

Yangi mavzu: Erkin Vohidovning «Oʻlka» sheʼrini oʻqib oʻrganish.

Oʻqituvchi sheʼrni ifodali oʻqib beradi. Mavzudagi notanish soʻzlar ustida lugʻat ishi oʻtkazadi

1 Koʻk – osmon.

2 Husn – CHiroy.

3 Koinot – Fazo, samo.

Mana endi siz bu mavzuni qanday tushunganingizni tasavvur qilganingiz haqida suʼbatlashamiz, demak, yana markazlar bilan ishni davom ettiramiz.

«Oʻqish markazi»dagilar sheʼrni avval ifodali oʻqishadi.

«Ona tili markazi»ga tayanch soʻzlar beriladi, shu soʻzlar ishtirokida hikoya yozish topshiriladi. (sayr, qalb, vatanim, madh, sheʼr)

«Matematika markazi» sheʼrda nechta soʻz va nechta gap borligini taʼlil qiladilar.

«Sanʼat markazi» sheʼrni sahnalashtirib koʻrsatishadi.

Barcha markazlarga berilgan topshiriqlar ijrosi munosib baholanadi.

Yangi mavzu savollar asosida mustahkamlanadi:

«Oʻlka» sheʼrining muallifi kim?

1. Sheʼrda qanday diyor tasvirlanyapti?

Nima uchun shoir sheʼrni «Oʻlka» deb nomlagan?

Darsni mustahkamlash hismida oʻqituvchi oʻquvchilarning fikrlarini yozma shaklda ixcham bayon topshirigʻini beradi. Topshiriq ikki turda oʻtkaziladi.

1-tur.

Buning uchun «Munozara» metodidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Bu metod yordamida oʻquvchilarga muayyan muammo boʻyicha toʻliq maʼlumot yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni oʻquvchilar muhokama qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli maʼlumotlarni atroflicha oʻrganadilar.

Vatanning nima uchun qiyosi yoʻq deyiladi?


O'ylash uchun vaqt beriladi. So'ngra fikrlarni yozishga tayyorlanadi va berilgan javobni quyidagicha ajratib yozishi mumkin.

<u>1-guruh</u>	<u>2-guruh</u>	<u>3-guruh</u>	<u>4-guruh</u>
1. Vatanda yashaymiz.	1. Vatan bizning aziz va mo'tabar diyorumizdir.	1. Vatanimiz juda ham go'zal, unda yam-yashil vodiylar bor?	1. Vatanimiz juda ham go'zallashib, ko'rkamlashib bormoqda.
2. Vatanda biz ilm olamiz va katta inson bo'lamiz.	2...	2 Vatanimiz dunyoga mashhur.	2. Dunyoda bunday jannatmakon Vatanni topib bo'lmaydi.
3.		3.	

O'qituvchi bu javoblarni eng ma'qullarini ko'rib chiqadilar. So'ng bu fikrlarga boshqa o'quvchilar ham qo'shimcha fikr aytib, to'ldirishlari va izohlashlari mumkin.

2-turda har bir markazga «Tarmoq» usulidan foydalanib, Vatan degan tushunchani, qanday tushunishingizni grafik chizmada ko'rsatish talab etiladi. Uni quyidagicha shakllantirish mumkin bo'ladi.

Bulb ul chamanin sevar, inson – Vatanin sevar	Yurtimizda turli millat vakillari yashaydi
---	--



Vatan ma'nosini eng ko'p sharhlagan markaz rag'batlantiriladi.

Dam olish daqiqasi: SHe'riyat lahzasi. O'quvchilar Erkin Vohidov she'rlaridan namunalarni ifodali o'qib beradilar.

O'qituvchi – Vatan, yurt, o'lka – bu uch tushuncha bir ma'noni, ya'ni, inson tug'ilib o'sgan diyorni anglatadi. Bizning yurtimiz haqiqatdan ham jannatmakondir. Bunday diyorda juda ko'plab buyuk allomalariz yashab o'tganlar. Siz ulardan kimlarni bilasiz?

O'quvchi: - Al-Xorazmiy, Abu Ray?on Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Nodira, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Po'lat Mo'min...

O'qituvchi: - Aziz bolalar, biz shunday buyuk Vatanimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Bizu siz o'tmishi buyuk xalqlarning farzandlarimiz. Sizu biz mana shunday Vatanimiz bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak, shuncha yarashadi va tom ma'noda arziydi.

Dars yakunida guruhlariga berilgan ballar hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi va «Ofarin» deb yozilgan kartochka taqdim etiladi.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarga «Barakalla» deb yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

Uy ishi: SHe'rni yod olish va «Vatan» mavzusida mustaqil ijodiy ish yozib kelish topshiriladi.

E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasidan parchani ijodi boshlang'ich sinflarda "CHarxpalak" deb nomlanadigan interfaol usulda tahlil qilinsa, saboqning samaradorligi oshadi. Bu usulda sinfdagi o'quvchilar besh yoki olti kishilik kichik guruhlariga bo'linishadi. Kichik guruh a'zolarining har bir o'z nomeriga ega bo'ladi. Guruhlarning a'zolari qasidaning qolgan to'qqiz bandi tahliliga qo'llariga berilgan kartochkalarga tayangan holda kirishadilar.

Har bir kichik guruh kartochkalardagi topshiriqlarni o'zicha bajaradi. Ular kartochkalardagi topshiriqlar bo'yicha o'z javoblarini tayyorlaydilar.

Barcha kichik guruhlarning tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. SHunda o'qituvchi qandaydir bir nomerni, misol uchun,

“4” raqamini aytadi. Har bir guruhning 4-raqamli ishtirokchisi o‘z guruhining javoblarini taqdim qiladi. SHunday qilinganda, kichik guruhlardagi eng a‘lochi o‘quvchining har safar taqdimotchi bo‘lib qolish xavfi bartarf qilinadi. Bir kichik guruhning to‘qqiz band yuzasidan beradigan javobini eshitishga ko‘p vaqt ketib qolmasligi uchun har biri guruhchadan ikkitadan savolga javob tinglanadi. Qaysi savolga qaysi nomerdagi o‘quvchi javob qilsa, uning javobiga boshqa guruhlardagi ayni shu nomerli o‘quvchilar munosabat bildirishlari, to‘ldirishlari, to‘g‘rilashlari mumkin. Navbatdagi savollarga beriladigan javob ham shu yo‘sinda tinglanadi va muhokama etiladi. Bunday qilinsa, har qanday savolga hamisha javob bera oladigan o‘quvchilargina emas, sinfdagi barcha o‘smirlarning faollashishiga erishiladi.

Kichik guruhlarning taqdimoti tugagandan so‘ng o‘qituvchi javoblarni umumlashtiradi, kichik guruhlarni baholaydi, asarning e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlariga qo‘shimcha ravishda to‘xtaladi. Bir kishi bergan javobga qarab bir kichik guruhdagi barcha o‘quvchilarga bir xil baho qo‘yilishi juda muhimdir. Bu hol o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Interfaol” metodning “CHarxpalak” deb nomlanuvchi usuli kichik guruhlardagi barcha o‘quvchilarning qo‘yilgan muammo yuzasidan barcha savollarga har doim tayyor turishlarini ta‘minlashi, intellektual imkoniyat va psixologik aktivligi turlicha bo‘lgan o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilganligi bilan samara keltiradigan metoddur.

“CHarxpalak” usuli qo‘llanganda amalga oshiriladigan o‘qitish jarayoni chizmada quyidagicha aks ettirilishi mumkin:

5-sinfdan boshlab o'quvchilar diqqati shoir hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarga va ijod namunalari tahliliga qaratiladi.

Erkin Vohidov tarjimai holiga oid ma'lumotlardan so'ng 5-sinfda badiiy asar tilini o'rganish masalasiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi. Bu masala o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlariga bog'lab yoritish yo'li bilan hal etiladi. Lirik asarlar nasriy asarlardan janr xususiyatlarga ko'ra farq qilganiday, badiiy tilining o'ziga xosligi jihatidan ham ajralib turadi. Lirik she'riyatda poetik fikr his-hayajonli, ohangli, ma'lum ichki tartibli tizma nutq (vazn) orqali ifoda qilinadi. SHoir bir she'r doirasida bir necha she'riy san'atlardan foydalanib poetik obraz qirralarini, uning ichki yashirin ma'nolarini yoritib berishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning «Bong uring» she'rini o'rganishda shoir qo'llagan tavsif va sifatlash (predmet, hodisa yoki shaxsning biror belgisi alohida ta'kidlab ko'rsatilishi) san'ati vositasida vaqtning g'animatligi ta'kidlanadi.

Olamda topilmas molimiz –

Vaqtimiz yonmoqda, yonmoqda.

Yonmoqda so'zi ko'p o'rinlarda takror qo'llanilib, ma'nodorlikni ta'minlamoqda, bir necha ma'noni ifoda qilganligi sababli, kitobxonni o'ylatib qo'yadi (ihom va tajnis san'atlari);

Umrimiz yonmoqda, yonmoqda.

Bir yonda biz topib ulgurmay

Ming-minglab savolga javoblar

Hatto birx varaqlab ham ko'rmay,

Javonda yonmoqda kitoblar.

SHoir qalbini egallagan tuyg'ularini ifodalashda tez-tez takrorlanuvchi undalmalardan foydalanib xitob qiladi. Bu usul nido san'ati deyiladi.

O't ketdi, hammayoq yonmoqda

*Odamlar uyqudan uyg'oning,
Shoshiling, qidiring tez najot.
Jon kuysin, qalb yonsin, siz yoning.
To yonib ketmasin bu hayot.*

Hammayoq yonmoqda, qalb yonsin, siz yoning birikmalaridagi yonmoqda, yonsin, yoning so'zlarining o'zagi yonmoq harakat nomidir. SHoir shakldosh so'zlarning ma'noviy xilma-xilligiga suyanib so'zning ichki ma'no boyliklarini yoyib berishga erishgan. Bu tajnis san'atidir.

«Bong uring» she'rini tahlil qilishni qo'llanilgan she'riy san'atlar haqida tushuncha berish bilan bog'lab olib borish natijasida o'quvchilar shoir mahorati qay tarzda namoyon bo'lganligini ham tushunib oladilar.

«Ko'hinur» dostonida Hindistondan inglizlar olib ketgan mashhur qimmatbaho olmos haqida fikr yuritiladi. Demak, shoir biror tarixiy voqea-hodisa yoki rivoyatga ishora qilish orqali mavzuning yangi bir qarashini ochib berishga intilgan. (bu talmeh san'ati deyiladi.) SHe'riyatdagi eng nozik san'at turlaridan savolu javob yoki (ritorik so'rov) usulini qo'llab qimmatbaho tosh insoniyat taqdiriga nechog'lik kulfatlar yog'dirganiga e'tiborimizni tortadi.

*Qay makonda, qay zamonda
Bino bo'lding, Ko'hinur?
Qay baxtsiz kun Hindistonda
Paydo bo'lding, Ko'hinur?*

*Bog'landilar to insonlar
Javohirga jon bilan –
Xazinalar va imonlar
Olud bo'ldi qon bilan.*

(Olud bo'ldi – qonu jon bilan olinadigan bo'ldi, ma'nosini ifoda qiladi)

*Qay bir mulkka oshno bo'lding,
G'orat bo'lding, Ko'hinur.
Qay bir yurtida paydo bo'lding
Ofat bo'lding, Ko'hinur.*

(Forat – g'am keltiruvchi dushman ma'nosida). Ushbu misralarda shoir qarshilantirish usuli vositasida inson ko'zidan haqiqotni, qalbidan imonni o'g'irlash quvvatiga ega bo'lgan boylikning yangi ma'nolarini yoritib bergan.

*Hech kim seni labga bosib
Davo topmas ochlikka.
Umri bitgan seni osib
Qayta olmas yoshlikka.*

SHunday ekanligi haqiqat bo'lsa-da, shu oddiy bir tosh ilinjida ne-ne shohlar, xojalar bir-biriga tig' urdi. Mol-dunyo havasi ularni inson qiyofasidan uzoqlashtirib, shafqatsiz maxluqqa aylatirdi. Yillar, zamonlar o'tdi. Hali hanuz Ko'hinur beqiyos jilosi bilan odamlar qalbini rom etmoqda. Ammo, insonlar-chi? Tokay ular ana shu mittigina toshga qul bo'ladilar? Qachon odamlar inson nomini yuksaltirish, yuksaklarga ko'tarish uchun beorom kurash olib boradilar? Qachon eng mo'tabar zot - inson qimmatbaho toshlardan-da aziz-u mukarramligini olam uzra namoyish etadi?!

*Sen kularsan, kulgulikdir
Senga bizning tilaklar.
CHindan hayron bo'lgilikdir.
Biz ishongan ertaklar.*

Mazkur she'r g'oyasi Ko'hinur bilan bog'liq voqealar orqali idrok etiladi. SHoirning badiiy topilmasini ana shu poetik fikrning ma'no salmog'i tashkil qiladi.

Demak, dostonda ma'lum obraz orqali hayotiy voqea-hodisalar shoir kechinmalariga uyg'un tarzda tasvirlanadi. Syujet va kompozitsiya tuzilishiga

ko'ra oddiy lirik she'rdan murakkabroq, qamrovi ham kengroq, lirik kechinmalarga, fikr va tuyg'ularga boyligi bilan ajaralib turadi.

O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov ijodi bo'yicha yakunlovchi mashg'ulotda u yaratgan «Nido», «Ruhlar isyoni» kabi dostonlar haqida qisqacha ma'lumot berish mumkin. SHoirning dramatik asarlari («Oltin devor» komediyasi, «Istanbul fojiasi» dramatik dostoni) ham xalqimiz tomonidan sevib tomosha qilinayotganligi ta'kidlangach, o'quvchilardan mustaqil o'qish uchun topshirilgan «Ona tilim o'lmaydi» she'rini yod o'qib berish so'raladi. Har bir o'quvchi she'rning ma'no-mazmunini o'z taassurotlari asosida sharhlab berish ham mumkin. O'qituvchi o'quvchini tahlilga yo'llash maqsadiga o'zni bilan yo'naltiruvchi savollar berib boradi.

Barcha dedi barobar

Ona tilim o'lmaydi.

misralarining takror qo'llanish sababini tushuntirib bera olasizmi?

Beqadr bo'lsa nahot,

Tilardagi tarovat!

Yo'qolardi bu kun hayhot

Qalblarda halovat.

«Faust» yondi gurillab,

«Xamsa» o'tga tutashdi.

Bu sado jahon bo'ylab

Taraldi, tog'lar oshdi.

Ushbu she'r bandlari orqali shoir qanday poetik fikrni ilgari surgan? Qo'llanilgan she'riy san'atlarni ajratib, izohlab bering. Erkin Vohidovning yana qanday she'rlarni mustaqil o'rgangansiz? SHoir ijodi Sizda qanday taassurot qoldirdi? Javoblarni umumlashtirish orqali o'qituvchi mavzuni yakunlaydi.

Demak, 5-sinfda adabiy asarlarni o'rganish bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, kirish mashg'ulotlarida ijodkor hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar bayon qilinsa, yakunlovchi mashg'ulotlarda sinfda o'qib o'rganilgan, mustaqil o'qish uchun tavsiya qilingan asarlar asosida yakuniy xulosalar chiqariladi, shoir ijodining o'ziga xos belgilariga, badiiy xususiyatlariga tayanib, mahoratiga baho beriladi. Bir qator nazariy tushunchalar o'zlashtiriladi. SHu bilimlarga tayanib, o'quvchi shoir ijodidan xilma-xil asarlarni mustaqil o'qib, tahlil qilishga o'rganadi.

1.2. SHoir hayoti va ijodini o'rgatishda dars samaradorligiga erishish usullari

Erkin Vohidov Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida 1936 yilning 28 dekabrda o'qituvchilar xonadonida dunyoga keldi. Otasi CHO'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon Vohidova o'z davrining ma'rifatli kishilari edilar. Afsus, ular uzoq yashamadilar. Avval Ikkinchi jahon urushida yaralanib qaytgan ota, so'ng onadan ayrilgan Erkin Vohidov toshkentlik tog'asi Karim Sohoboev xonadonida voyaga yetdi. SHoir ulg'aygan xonadonda tez-tez adabiy suhbatlar bo'lib turar edi. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she'riyatga mayl ana shu davralarda shakllandi. U juda erta qo'lga qalam oldi. 7 sinfda o'qib yurgan kezlarda birinchi she'ri "Mushtum" jurnalida bosildi. Maktabni tamomlab, ToshDUning filologiya fakul'tetiga o'qishga kirdi. Universitet ta'limi shoir ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirdi: birinchi she'riy kitobi "Tong nafasi" talabalik yillarida yaratildi. SHundan buyon ijodkorning qirqdan ziyod kitobi kitobxonlarga tortiq etildi. Lirik she'rlar bilan birga "Palatkada yozilgan doston", "Nido", "Ruhlar isyoni" dostonlari, "Istambul fojiasi" she'riy dramasi, "Donishqishloq latifalari" hajviy turkumi, "Oltin devor" komediyasi, "Ikkinchi tumor" tragikomediyasi, "SHoiru she'ru shuur" nomli adabiy-falsafiy to'plami o'zbek adabiyoti rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Erkin Vohidov dunyo she'riyatining yorqin vakillari S.Esenin, A.Blok, L.Ukrainka, R.Hamzatov singari shoirlarning ko'plab asarlarini ona tilimizga tarjima qilgan.

- Erkin Vohidov tomonidan ulug' nemis mutafakkiri Gyotening "Faust" asarining o'zbek tiliga o'girilishi (1974) nafaqat adabiyotimiz, balki madaniyatimiz tarixida muhim voqea bo'lib qoldi.
- Erkin Vohidov she'riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarida ijod qiladi. SHo'ro adabiyotshunosligida aruz vazni "eskirgan, zamon talabiga javob bera olmaydi" deb inkor qilina boshlagan bir paytda shoir "Yoshlik devoni" (1969) kitobini e'lon qilgan, undan joy olgan o'nlab g'azallar bunday da'voning puch ekanligini isbot qilgan edi:

Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida,
 Kulmangiz, ne bor senga deb Mir Alisher yonida.
 SHE'riyat dunyosi keng, gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,
 Har ko'ngil arzini aytur neki bor imkonida.
 Ey munaqqid sen g'azalni ko'hna deb kamsitmagil,
 Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.
 Toshga ham shirnin g'azal baxsh aylagay otash va jon,
 SHavq o'ti yonsa agar shoir - g'azalxon qonida.

SHu tariqa shoir inson qonidagi azaliy, tabiiy tuyg'u - sevgini kuylagan g'azal shaklini himoya qiladi, SHE'rda g'azal shunchaki she'riy shakl ma'nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg'ular ramzi sifatida ham qo'llangan.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov o'zining butun faoliyati va ijodini xalqimiz orzu-o'ylarini ifodalash, millatimiz taqdiriga dahldor muammolarni dadil ko'tarib chiqish, kishilarimiz madaniy-estetik saviyasini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan. Bu jihatdan shoirning 1968 yilda yozilgan "O'zbekim" qasidasi alohida ahamiyatga ega.


Tarixingdir ming asrlar ichra inhon, o'zbekim,
 Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.
 So'ylasin Afrosiyobu so'ylasin O'rxun xati,
 Ko'hna tarix shodasinda bitta marjon, o'zbekim.
 Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farob avlodidan,

Asli nasli balki O'zluq, balki Tarxon, o'zbekim.

SHoir lirikasi


Erkin Vohidov publitsist, dramaturg, dostonnavis sifatida barakali ijod qilgan bo'lsa-da, avvalo, u lirik shoir sifatida adabiyotga kirib kelgan, xalqimiz qalbidan ham nafis, ham dolg'ali, ham isyonkor she'rlari orqali joy olgan.

SHoirning ijodi bahs-munozaralar ichida kechdi. SHoir o'z qo'lidagi qurol - she'r, uning tabiati va shoirning el-yurt oldidagi burchi-vazifasi xususida ko'p o'yladi, she'r va shoir haqidagi qarashlarini bayon etdi. SHoir "Saylanma"siga kirgan she'rlar bu boradagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.



70-80-yillarga kelib shoir sevgi, hayot kuychisigina emas, ko'proq hayotning , inson qalbining badiiy tadqiqotchisi sifatida ko'rina boshladi. Ayniqsa bunday holat "Hozirgi yoshlar", "Sirdaryo o'landi", "Arslon o'ynatuvchi" she'rlarida, "Ruhlar isyoni" dostonida yaqqol namoyon bo'ladi. "Ruhlar isyoni" dostoniga bengal shoiri Nazrul Islomning hayoti, fojiali qismati

asos qilib olingan. . “Otashin bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiri ko’pdan meni hayajonga solib kelar, u haqda biror narsa yozish xayolida yurardim”, deb yozadi muallif. SHu tariqa u shoir hayotini sinchiklab o’rgandi, uning hayotiga oid faktlar bilan tanishdi.



Doston haqsizlik va adolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste’dod egasining o’rni haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boshlanadi. CHin iste’dod egasining tabiati yaralishdan nohaqlikka, adolatsizlikka, istibdodga qarshi isyondir deb hisoblaydi muallif.

Lek olamda bir dard borki,
Unga sira najot yo’q.
Bu azobga kim duchorki,
Unga kun yo’q,
Hayot yo’q.
Bu mashaqqat ichgan bilan
Dil tubiga cho’kmaydi.
Uni hech kim yuragidan
Hech kimsaga to’kmaydi.

Nazrul Islom dunyoga shoir bo'lib, ya'ni davrining pok tilagi, imoni, armon to'la yurakdagi isyoni bo'lib tug'ildi. Milliy ozodlik bo'sag'asida turgan el-yurt shunday isyonkor shoirga muhtoj edi, "Zamon uning yonib turgan yuragini so'radi". SHoir hali tug'ilmasdan burun o'z yurtidan judo etilgan edi: el-yurti mustamlakachi zobitlar oyog'i ostida toptalib yotibdi. Jaholatda qolgan xalq zolim-zobitlarga qarshi turish o'rniga, hind-u musulmonga ajralib, bir-birining go'shtini yeyish, qirish bilan ovora. Muallif Hindiston tarixining shu qora kunlarini alam bilan qalamga olar ekan, yana shoir va uning fuqarolik burchi haqidagi bahsga kochib, deydi:

Har nechakim zor istedod,
Toshqin ilhom,
Xalqing yotsa chekib faryod,
Yaramasang kuniga.
SHoir esang,
SHoir bo'lib
Nega kelding hayotga?
Eling yotsa dardga tolib,
Kelolmasang najotga?!
Ne shoirsang
Tashbehlarining
Bormi asli keragi.
Bo'lmasa el g'ami – darding,
Yuraging – el yuragi?!

SHoirni, ayniqsa, faqat o'z joni tinchini o'ylandigan, jur'atsiz, qo'rqqoq, munofiqlar aqidasi tashvishga soladi. Haqsizlikni ko'ra-bila tura indamaslik, loqaydlik xiyonatdir. Afsus, u jaholat tufayli karaxt, ko'r-u karga aylangan olomon taqibiga uchraydi: shoirni g'alayonning sababkori deb ataydilar. SHu tariqa el uchun jonini, jahonni berishga tayyor fidoiy shoir el dushmaniga aylanadi, hibsga olinadi.

Dostondagi Nazrul Islom qismati, unga dahldor rivoyatlar, shoirning ehtirolarga to'la o'y-mushohadalari bilan tanishar ekansiz, asarni yozishdan maqsad faqat bengal shoiri hayoti, Hindistonda kechgan voqealar, qadim rivoyatlarni hikoya qilishdan iborat emasligini sezib, his etib turasiz.

Ayni paytda gap o'z ona yurtimiz, unig istilochilar istibdodi yillaridagi kechmishi, Qodiriy, CHO'lpon, Fitrat kabi millatning asl fidoiy o'g'lonlari, ularning yurt ozodligi, mustaqilligi yo'lidagi kurashlari va bu kurashlar qanchalar qimmatga tushganligi - barchasi birma-bir ko'z oldingizdan o'tadi. XX asrning 70-yillari oxirlarida yozilgan bu dostondagi isyonkorona kurashchan ruh Qodiriy, CHO'lpon, Fitratlarga xos el-yurt g'ami, erki, ozodligi yo'lida kuyib-yonishlar bu yillarda ham davom etganligini tasdiqlaydi.

SHoirning bir jildlik "Muhabbat" (1976), ikki jildlik saylanma asarlari ("Muhabbatnoma" va Sadoqatnoma", 1986) o'z vaqtida adabiyot olamida katta voqea bo'lgan edi.

"Kamtarlik haqida" she'ri 1956 yilda yozilgan.

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
SHunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan

SHoirning "Qaro qoshing" deb boshlanuvchi she'ri 1957 yilda yozilgan va shu kungacha alliteratsiya san'atining go'zal namunasi hisoblanadi.

"Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qilur qatlimga qasd qayrab –
Qilich qotil qaroshing, qiz.
Qafasda alb qushin qiynab, qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

1959 yilda yozilgan she'rlaridan biri "Sevgi" deb nomlanadi.

O'n sakkizga kirmagan kim bor,

Bog'ingdan gul termagan kim bor.
 Sen haqingda yozib to'rt satr,
 Sirdoshiga asta ko'rsatib,
 Qo'shni qizga bermagan kim bor.
 Dastlab har kim qalam olgan on
 Yonib seni kuylar begumon.
 Maskan qurib har bir ko'ngildan,
 Oshiqlarni qoldirib tildan
 SHoirlarni qilursan biyron.

SHoirning “Yoshlik” deb nomlanuvchi she’ri mantiqan “Sevgi” ning davomiday taassurot qoldiradi:

Yoshlik! Seni kuylamagan kim,
 Ertaklaring so'ylamagan kim,
 Qariganda o'ylamagan kim,
 O'ylab yana kuylamagan kim?

Bitmoq bo'ldim men ham senga bayt,
 Yosh yurakning haqqi bormi, ayt?...
 Yoshlik – ishq oshiqlik mayli,
 O'zi Majnun, ham o'zi Layli,

Subhi olam uning tufayli.
 Mayli unga bitmasam mayli,
 Na bir g'azal, na bir musaddas,
 Uning o'zi she'rdan muqaddas.



Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, E.Vohidov hayoti va ijodini o'rganishda hamkorlikda ishlash dasturini tuzishda aniq maqsadni belgilab olish; har bir o'quv topshirig'i yoki o'quvchini fikrlashga undovchi savollar ustida ishlash uchun qat'iy vaqt belgilanishi; topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar ishlab chiqilishi ta'lim samaradorligi ta'minlanishiga ta'sir ko'rsatadi. O'quvchida fikr uyg'otish, unga aqliy-hissiy ta'sir ko'rsatish natijasida yuzaga kelgan fikrlar tafakkurda muayyan shaklga ega holda nutqqa ko'chadi va ularda o'g'zaki nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek darsda qo'llanilgan turli xil muammoli savollar turli xil o'yinli mashg'ulotlar uchun ham ozuqa berishini inobatga olib, "Klaster", 6X6X6, "Blits", "Ayliy hujum" o'yinlari oryili o'quvchilarni izlanish va muayyan faollikka yo'naltiriladi, muayyan masalada mustaqil fikrlarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilishga bo'lgan mayllarni yanada rivojlantiradi.

II bob. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi adabiyot darsliklarida shoir Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatishning o'ziga xosligi

2.1. Akademik litseylarda adabiy ta'limda so'z san'atkorlari Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish xususiyatlari

Erkin Vohidovning asarlari adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilarimizning ma'naviyatini boyitishga, ularning adabiy didini o'stirishga xizmat qila oladigan nodir obidadir. Bu imkoniyatdan ustalik bilan, o'z o'rnida va unumli foydalanish jamiyatimizning hozirgi paytda ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi mas'uliyatli vaifalarini bajarishga tegishli hissasini qo'shadi.

Ta'lim bosqichlarida shoir yoki yozuvchining hayoti va ijodini o'rgatish muayyan didaktik va tarbiyaviy maqsadlarni o'z ichiga oladi. SHoir ijodi namunalari vositasida o'quvchilar badiiy asar bilan tanishadilar. Uning ta'sir qudrati ila go'zallik va nafosat olamiga kirib boradilar. Badiiy asarga xos obrazlilikni, obrazli ifoda zamiridagi ma'nolarni anglashga o'rganadilar. Badiiy so'z ustalari tasvirlagan manzara insoniy kechinmalar mazmunini tushunishga, shoir tuyg'ularini o'z ko'nglida his qilishga o'rganadilar. Ayni damda, har bir san'atkor yaratgan asarlar orqali uni tanish ko'ngil olamiga kirib shoir o'y-xayolga borishga erishadilar. So'z san'atkorlari o'quvchi ko'z o'ngida betakror, o'zigagina xos qiyofasi bilan gavdalanadi. SHoir qiyofasi, ko'ngil olami, quvonchu izzatoblari yaratgan asarlari ruhidan his qilib anglanishi tufayli E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf kabi qator xalq shoirlari o'quvchilar uchun namuna va ibratga aylanadi. Bunday ijodkorlarning tarjimai holiga oid uzun ma'lumotlardan ko'ra badiiy barkamol asarlari o'quvchilar qalbiga tezroq yo'l topadi, estetik ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotdan takomillashtirilgan va uzviylashtirilgan o'quv dasturiga ko'ra xalq shoiri E.Vohidov ijodi 6-sinfda "O'zbekim" qasidasini (2 soat) va 5-sinfda "Nido" dostonidan parcha (3 soat) o'rganish ko'zda tutilgan⁷.

SHoirning "Nido" dostonini o'rganishdan oldin o'quvchilar e'tibori Erkin Vohidovning dostonnavis sifatidagi faoliyatiga qaratilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Biz o'z ish tajribamizda Erkin Vohidov hayoti va ijodini, xususan, "Nido" dostonini o'rganish uchun ajratilgan 3 soatni quyidagicha taqsimladik. "O'zbekim" qasidasini uyda o'qib kelishga topshirgan holda asarni o'quvchilar "B.B.B" usulida o'zlashtirishlariga sharoit yaratamiz. Slayd orqali ekranda (yoki doskaga avvaldan tayyorlangan doirachalar ilinadi) uch doira ko'rsatiladi.

Birinchi doira tepasiga "Bilaman", ikkinchisiga "Bilishni istayman" va uchinchisiga "Bilib oldim" jumalari yozilgan. 1-2-doirachalar darsda to'ldiriladi hamda og'zaki tarzda o'quvchilar tomonidan sharhlanadi. Qatorlararo musobaqa usulidagi "Zanjir" metodi yordamida doirachalar ichidan zanjir xalqalari kabi savollar chiqib keladi.



"Bilaman" doirasidagi savollar o'quvchilarning Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqidagi umumiy tushunchalari darajasini ko'rsatadi. Doira ichidagi halqachalardan *"Siz Erkin Vohidov hayot yo'li haqida nimalarni bilasiz?"*, *"SHoirning ilk to'plami qanday nomlanadi?"*, *"SHoirning qaysi asarlarini o'qigansiz?"*, *"Nido" qanday asar? Bu asar g'oyasini tushundingizmi?* *"Erkin Vohidovning yana qanday dostonlarini bilasiz? Tarjimalarini-chi? SHE'riy*

⁷ Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Адабиёт. –Т.: 2010. -63 б; 66 б.

to'plamlarini ham bilasizmi?", *"SHoir haqida yana nimalarni bilasiz?"* kabi ketma-ketlikdagi yo'naltiruvchi savollar joy olgan. Qaysi savolga o'quvchi javob topolmasa, zanjir halqasi uziladi. Bu guruh o'yindan chiqadi. Halqalarni "ulash"ni 2-qator o'quvchilari davom ettiradilar. Halqalardagi savollarga to'la javob olingach, 2-doirachaga o'tiladi. Qatorlardagi guruhchalar 3-4-doirachalarni mustaqil holda to'ldiradilar. Doira ichida hosil bo'lgan halqachalar soni o'quvchilar bilishni xohlagan masalalardan va ular bilib olgan tushunchalardan iborat. Demak, qaysi guruhchadagi o'quvchilar doirasidagi halqachalar soni ko'p bo'lsa, ular bilimi shuncha ball bilan taqdirlanadi. Keyingi 4-doirachani (uyda o'qib kelish uchun topshirilgan edi) "Nido" dostonini o'qib o'rgangandan keyin to'ldirilishi lozimligi o'quvchilarga uqtiriladi. Sinfda "Ko'hinur" dostoni o'qib o'rganiladi.

Ekran orqali shoir hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotdan keyin "Ko'hinur" dostoni matni o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Doston ifodali o'qiladi, so'ngra tahlil jarayoni boshlanadi.

Keyingi dars soatida Erkin Vohidov hayoti haqida o'quvchilar qanday tushunchalarga ega bo'lganliklari o'rganiladi. "Bilib oldim" bandi bo'yicha o'quvchilar vazifani qanday bajarganliklarini aniklash "Zanjir" usulida davom ettiriladi. Slayddagi 3-daira ichidan halqachalardagi savollar taqdim etiladi: "SHoir dostonga "Nido" deb sarlavha qo'yganligi sababini izohlay olasizmi?". Dostonda qanday hayotiy voqealar tasvirlangan? Otasining o'limidan fig'on chekkan shoir kechinmalari asarda yetakchilik qilishining sababi nimada? Urush fojiasi tasviri yana qanday ma'nolarni ifoda qiladi? " Javoblar qatorlararo musobaqada qatnashayotgan o'quvchilar tomonidan to'ldirib boriladi. Eng mukammal javoblar halqachalar soniga, guruhlar soniga ko'ra ballar bilan baxolab boriladi. Dars yakunida g'olib qator e'lon qilinadi.

Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'rganish uchun ajratilgan oxirgi 3-soatda doston haqida nazariy tushuncha berish o'rinli bo'ladi. Slayd orqali "Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da berilgan ta'rif yozdiriladi:

Liro-epik asarlarda muayyan hayotiy voqea ta'siridagi lirik qahramon kechinmalari ko'lamli tasvirlanishi uning ruhiyatini, kechinmalari salmog'ini, mazmun-mohiyatini qamrovli ifoda qilish imkonini beradi. Lirik kechinma hayotiy hodisa yo fojia bilan uyg'unlikda umuminsoniy ma'nolardan salmoqli poetik umumlashma kashf qilinishiga asos bo'ladi. So'z san'atkorlarining mahorati tufayli urush va tinchlik kabi muhim mavzularning yangi qirralari ochib beriladi. Kitobxon ongu tafakkuri, ko'ngil olamini boyitishga erishadi. Xalq shoiri Erkin Vohidovning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, iste'dodi va badiiy mahorati qadrlanib "Davlat mukofoti", "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, "Xalq shoiri", "O'zbekiston Qahramoni" unvonlari berilganligi ta'kidlanadi. Ekran orqali uy vazifasi topshiriladi.

Xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ko'hinur" va "Nido" dostonlariga xos badiiy g'oyani yoritish. Bu asarlarga xos g'oya qanday vositalar orqali ifoda qilingan? "Nido" san'atidan shoir qanday maqsadda foydalangan? SHoirning yana qanday she'rlarini o'qigansiz? (Mustaqil o'qish uchun she'rlaridan tavsiya qilinadi).

Demak, Erkin Vohidov asarlarini o'rganishda o'quvchilarni faollashtirishga intilish, ularning mustaqil fikr bildirishlari uchun qulay sharoit yaratish ta'lim samaradorligi ta'minlanishiga ta'sir etadi. 5-6-sinflarda shoir ijodi namunalarini "Zinama-zina", "Bilimdonlar ringi", "Kim eng bilag'on?" kabi o'yin, musobaqa usulidagi darslar davomida o'rganish ham ta'lim samaradorligiga olib boradi.

Adabiyot darslarida savollarni hayot bilan bog'langanligi ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. Rus metodiat olimi T.P.Baltalon bunday deydi: "Adabiy o'qishga haqiqiy rahbarlik o'qilganlar yuzasidan to'g'ri, doimiy suhbatlarda ko'rinadi" Vaholanki, savolning javobi ustida har bir o'quvchining faol izlanishi, faollik ko'rsatishini talab qiliadi. Bu esa o'quvchilarning Erkin Vohidov she'rlaridagi jozibani anglashlariga imkon beradi, shu bilan birga ularda badiyyatdan zavqlanish tuyg'ularini kamol toptiradi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikni amalga oshirishda avvalom bor o'quvchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir ko'rgazmalardan foydalanishning o'ziga xos xavfsizligi va talablari qo'yiladi. Bu talablarga to'liq rioya qilishi har bir o'qituvchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Chunki tayyorlangan ko'rgazma gigienik tomondan va psixologik tomondan o'quvchiga mos bo'lishi shart.

Bundan tashqari har bir tayyorlangan ko'rgazmadan foydalanish vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilishi hamda darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi.

Har bir ko'rgazmani tayyorlash jarayonida o'ziga xos vositalar qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Tayyorlangan ko'rgazmalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabda har bir o'qituvchi ayrim turdagi ko'rgazmalardan o'quv mashg'ulot jarayonida o'quv materiallarni amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq ko'rgazmali qurollardan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlashlari va uning asosida ochiq darslar o'tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralar, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: kino, televidenie, musiqa,

tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi, shuningdek adib yaratgan obrazlarning o'quvchi ongida yanada puxtaroq muxrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, magnitafon har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish bir-biridan o'z xarakteriga ko'ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa-boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. To'garak ishlarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi masalan, o'quvchilarning san'atini muayyan turi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish yoki o'quvchilarni biror tasviriy san'at, musiqa asari, tele yoki kino film bilan tanishtirish vazifasini qo'yishi mumkin. Bu albatta o'quvchilarning adabiy asarlarni o'zlashtirishlariga muayyan darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotning boshqa san'at turlari bilan o'zaro ta'siri bir xil bo'lmasa-da, o'quvchilarning kino, teatr, musiqa, tasviriy san'at haqidagi tajribalari ularning adabiy jihatdan kamolotlarida jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Darsda esa ko'rgazmalilik o'quvchilarning asarni o'zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo'llanishi mumkin. Aks holda u birinchi o'ringa chiqib, asosiy mavzu orqa o'rinda qolishi mumkin.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlashdan, bir so'z bilan aytganda adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat.

Bu xususiyat har bir konkret holatda turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Ko'rgazmalilikdan foydalanganda darslarda shartli ravishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin. Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa undan foydalanmagan ma'qul.


Gap o'tmish adabiyoti, yoxud chet el hayoti bilan bog'liq asarlar ustida boradigan bo'lsa, ko'rgazmalilikning ahamiyati yanada ortadi. Zero o'quvchi xira tasavvur qilgan yoki mutlaqo tasavvurga ega bo'lmagan voqea va hodisalar haqida ko'rgazmalilik tufayli yorqinroq va aniqroq bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Bunday paytda o'qituvchining izohi kamlik qiladi, ana shu o'rinni ko'rgazmalilik to'ldiradi.

Ko'rgazmalilik o'qituvchi izohida ham mavjud. Garchi bunday holatlarda o'quvchida passivlik sezilsa-da, ammo bu ko'rgazmalilikning rolini mutlaqo pasaytirmaydi.

Ammo shunisi muhimki, ko'rgazmalilik vositasida o'quvchi faol muloqotga, suhbatga, faol fikrlash darajasiga yetsin. Ko'rgazmalilik adabiy jarayon, hodisa yoki obrazning muayyan qirralarini ochishga yordam bersagina shunday bo'ladi.

O'quvchilar bilim faoliyatini oshirish va faollashtirishda ularni o'zlarini ko'rgazmali qurollar yasashga jalb etish ham samarali bo'ladi. Xususan, she'riy vaznlarni belgilashda, adabiy tur va janrlarni ajratishda o'quvchilarning o'zini ham bunga jalb etish mumkin. Bu o'quvchilardagi muayyan bilimlarni mustahkamlashda ham qo'l keladi.

Demak, ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda ko'rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir. Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldagi ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin.



Ayniqsa ko'rish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan joylar rasmi yoki, yozuvchining hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan yoki yozuvchining hayoti, asari bilan bog'liq fotosuratlar kirishi mumkin.

Har holda eng kamida darslik va majmualardagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Ishda albatta hajmi qo'shimcha texnik vositalarni talab qilmaydigan reproduksiyalardan foydalanish ham qulaylik tug'diradi.

Turli xil ko'rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo'ladi.

Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishga doir albomlarda tasviriy san'at asarlaridan namunalargina emas, yozuvchining o'zi va zamondoshlari

aytgan fikrlar, xatlardan namunalar bo'lishi mumkin. Tasviriy va hujjatli materialning bir xildagi birlashuvi albomlardan darsda ham, sinfdan tashqari ishlarda ham, yakka mashg'ulotlarda ham foydalanish imkonini beradi.

Har xil jadval va sxemalar ham o'quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga ularning adabiy-estetik rivojlanishlarida omil bo'lishi shubhasizdir.

Tinglash bilan aloqador ko'rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Asarni, xususan she'riy asarlarni to'liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushli obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. G'. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, E. Vohidov, A. Oripovlarning ovozlari yozilgan plastinka va magnit tasmlari, A. Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat... she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar plastinka va magnit tasmlarni bugun o'qituvchilarimiz ko'p qiyinchiliksiz topishi mumkin bo'lgan va amaliyotda ko'p qo'llaydigan manbalardir.

Musiq va badiiy-ifodali o'qish adabiyot o'qitish jarayonida o'qituvchilar faolligini oshirishda ijobiy rol o'ynaydi. Musiqalarning adabiyot darslaridagi zaruriyati ba'zan nihoyatda ochiq seziladi. Masalan, quyi sinflarda ertak va dostonlarni, xalq qo'shiqlarini faqat eshitish emas, balki xalq baxshilari, laparchilari, qo'shiqchilarining ijrosini kuzatish ham maroqli va ta'sirliroq bo'ladi. Ammo ko'rgazmalilikning asosiy narsa emas, balki " ikkinchi darajali " material ekanligini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Gap shundaki, har qanday sifatli va zamonaviy texnik vositalar ham bevosita muloqot nuqtai nazaridan o'qituvchi nutqining o'rniga teng kelolmaydi. O'qituvchi o'zi matnni o'qiganida istagan vaqtda uni uzishi, tegishli zaruriy izoh va tushuntirishlar berishi, o'quvchilardan so'rashi mumkin, Bugina emas o'qituvchi va o'quvchilarning ifodali o'qishi mutlaqo boshqacha samara beradiki, buni aktyor yoki professional ijrochi tomonidan amalga oshirilgan harakat natijasida erishishi mumkin emas.

SHuni unutmasdik kerakki, aktyor ijrosi ko'pgina ustunliklarga ega, ammo u o'qituvchi va o'quvchi o'qishini siqib qo'yadigan yoki chegaralaydigan bo'lsa, buning oqibatida o'quvchining ijodiy- ijrochilik qobiliyati susayib ketishi mumkin.

Demak, har qanday ko'rgazmalilikda bo'lgani singari, eshitish bilan bog'liq ko'rgazmalilikda ham o'qituvchi tegishli pedagogik va metodik talab va me'yorlarga amal qilishi shartdir.

Ko'rgazmalilikning sintetik vositalari.

Kino va televideniyaning imkoniyatlari nihoyatda katta. Uni maxsus izohlash zarurati yo'q. Unda ham ko'rish ham eshitish ko'rgazmaliligi mavjudki, ular obrazlarning makon va zamonda qayta gavdalantirishi bilan adabiy voqelikning asl holiga ancha yaqin manzarani yarata oladi. SHuning uchun ham ulardan o'quv maqsadlarida foydalanish imkonlari ham kelajagi ham katta.

Ammo ulardan foydalanishdagi murakkabliklar ham kam emas. Xususan, teleko'rsatuvlar muddati va davomiyligi, tabiiyki o'qituvchiga mutlaqo bog'liq emas.

Kino stsenariylar orasida yozuvchi tarjimai holi (A. Qodiriy, Odil Yoqubov, P.Qodirov, Zulfiya, Oybek) bilan bog'likliklari, ekranlashtirilgan asarlar ("O'tgan kunlar", "Qutlug' qon", "Temir xotin", " Yulduzli tunlar " v.b.) mavjud. Tabiiyki ularning ko'pi bir necha qismlardan iborat. O'qituvchi ularning hammasidan emas, balki bevosita dars maqsadi va vazifasiga bog'liq qismlardagina foydalangani maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adiblar yashagan joylar bilan bog'liq (A. Yassaviy, A. Navoiy, Bobur) kinoekskursiyalardan ham shu xilda foydalanish o'rinli bo'ladi. Ularning ayrimlaridan sinfdan tashqari ishlarda foydalanish ham samarali bo'ladi.

Hozirgi paytda doimo yangilanib turadigan tele-darslar ham qo'shimcha imkoniyat sifatida nazarda tutilishi mumkin.

Adabiyot o'qituvchisi ko'rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda, shuningdek, qay miqdorda foydalanishini aniq belgilab olishi shart. U darslar tizimi yoki bir darsning muayyan qismi bo'lishi mumkin.

Garchi metodik adabiyotlarda ko'rgazmalilikdan yakunlovchi darslarda mahoratli o'qituvchi undan istalgan dars tipi va darsning istagan qismida foydalanish mumkin.

Masalan, Erkin Vohidov lirikasini o'tishda "Rashk" yoki "O'zbekim" qo'shiqlarini tinglash sinfda Erkin Vohidov poeziyasi ruhini hosil qilishda muhim o'rin tutishi mumkin.

Asarni o'rganishning yakunlovchi bosqichida qiyosiy yo'nalishdagi topshiriqlarni berish ko'proq tarqalgan. Zero bu usul asar mohiyatini, obrazlar xarakterini, so'z san'atini o'ziga xos xususiyatlarini yorqinroq va chuqurroq anglashda eng sermahsul hisoblanadi.

Asarni to'laroq idrok etish adabiyotga yaqin bo'lgan san'at asarlarida foydalanishdan oldin o'quvchilar dastlab asar haqida elementar bo'lsa-da tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. SHunga ko'ra o'quvchi fil'mni yoki rasmni ko'rib, kuy yoki qo'shiqni tinglab bo'lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o'quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so'zning ta'sir kuchini yaqqolroq his etishga yordam bersin.

Yana bir muhim holat shundaki ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar

yasash o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


E.Vohidovning ijodiy faoliyatini o'rganishda "Zigzag" metodidan foydalangan holda ish ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Avvaldan
tayyorlangan maxsus
so'zlari yozilgan
tarqatmalar partalar
ustiga qo'yib
chiqiladi.


Masalan:

ЗИГ
ЗАГ
МЕТО
ДИ

O'qituvchi tomonidan
tayyorlangan kichik
tarqatmalarda yozilgan
kartochkalarni talabalar
kelib olishadi. Bir xil so'z
tushgan talabalar o'sha so'z
yozilgan stol atrofiga
o'tiradilar. Masalan
she'riyat so'zi tushgan 5 ta
talaba she'riyat so'zi




Ushbu tarqatmalar har bir stoldagi talabalarga tarqatiladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi. Belgilangan vaqt davomida guruhlar matn ustida ishlaydilar, vaqt tejash maqsadida guruh talabalari orasidan liderlar tanlanadi. Savollarga javob berilgandan so'ng liderlar chiqib uni taqdim etadilar. Shu tarzda 5 ta tarqatma stollar atrofida aylanib chiqadi va har bir guruh lideri savollarga javob beradilar



Shu tartibda talabalar 5 guruhga b'linadi. Mavzu mahiyatini yorituvchi matn

SHundan so'ng "Tarmoqlash" metodidan foydalanib Erkin Vohidov qalamiga mansub bo'lgan asarlarga va she'riy to'plamlarga izoh beriladi.



O'quvchilarning bilimlarini sinashda ham "Klaster" metodidan foydalanish mumkin

Har bir guruhga "Ruhlar isyoni" dostonidan rivoyatlar yozilgan tarqatmalar beriladi. Ular rivoyatlarni dostonida tutgan yrniga k'ra tahlil qiladilar

"Abadiyat haqida rivoyat"

"Jaholat to'g'risida rivoyat"

"Fidoyilik to'g'risida rivoyat"

"Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat"

“Oliy ruhlar haqida naql”

Ushbu topshiriqni bajarish uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt mobaynida guruhlar o‘zaro kelishgan holda ishlaydilar. So‘ng guruh liderlari chiqib topshiriqni taqdim qiladilar.

Badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni rasmlar, obrazlar orqali jonlantirib, qayta esga solish - *ko‘rgazmalilik* deb ataladi. Adabiy matnni o‘zlashtirishda tasviriy san‘at, musiqa, kino, televidenie kabi vositalar yordam beradi. San‘atning bu turlari axborot manbai bo‘lib, o‘quvchida estetik tuyg‘uni uyg‘otadi, yozuvchi yaratgan obrazlarni chuqur anglab olishga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inson faoliyatiga joriy etishning chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorini bajarish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Kompyuter va axborot texnologiyalari o‘quvchi-talabanning fanga bo‘lgan qiziqishini va mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada oshiradi, uning bilim olishi erkinlashadi. O‘quvchi-talaba internetdan mavzu bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni olib bilimini rivojlantirishi hozirgi zamon talabidir. Adabiyot darslarida “Umr daftari” turkumidagi ko‘rsatuvlar to‘plami, badiiy asarlar asosida suratga olingan filmlar, ovozlar yozilgan audio kasetalar asarni chuqur idrok qilishlariga yordam beradi.

Kuyga solingan she'rlarni eshittirish adabiyot o'qitish jarayonining qiziqarli va mazmundor chiqishi uchun sharoit yaratib beradi. Hattoki, xalq og'zaki ijodi mavzusidan xalq baxshilari aytgan ertak, dostonlarni tinglash ham dars samaradorligini oshiradi.


Vohidov lirikasini o'tishda "Rashk" yoki "O'zbekim" qo'shiqlarini tinglash sinfda Erkin Vohidov poeziyasi ruhini hosil qilishda muhim o'rin tutishi mumkin. SHoirning "Oltin devor" komediyasini o'rganishda ko'pincha shu nomdagi spektakldan foydalaniladi. Unda qo'shnilar orasidagi munosabatni ko'rish va kitobda kuzatish orqali saxnadan ifoda vositalari bilan adabiyotdagi tasvir vositalarini qiyoslash orqali so'z san'ati imkonlari aniqroq va yorqinroq ifodalanadi.

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Yana bir muhim holat shundaki, ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar yasash o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangilanish adabiyot fanini o'qitish mazmunini o'zgartirish bilan bir qatorda ko'proq bu fanni o'qitish uslubiyatini o'zgartirishini talab etadi. SHu o'rinda bu boradagi yangi texnologiya tushunchasi bilan noan'anaviy dars tushunchasining farqi haqida gapirish o'rinlidir, chunki ko'pchilik o'qituvchilar ularni farqlamay tenglashtiradilar.

Vaholanki, noan'anaviy dars shunchaki usul bo'lib, yangi texnologiya usullar majmuasidir. Bu texnologiyaga noan'anaviy dars ham kirishi mumkin, bu dars yangi bilim olishda o'quvchilar ob'ekt emas sub'ekt sifatida faol bo'lsalar, shu bilan birga, noan'anaviy dars yangi texnologiya ruhida o'tkazilmasligi mumkin.

“Erkin Vohidov hayotidagi muhim sanalar” deb nomlanib sinfda shakllantirilgan guruhlariga muhim sanalar aytiladi. O’quvchilar bu sanada qanday voqea sodir bo’lganini aytishlari kerak.



Darsning bu shakli orqali o’quvchilar Erkin Vohidov hayoti va ijodiga oid ko’plab ma’lumotlarni aytib o’tishadi. Dars SHerali Jo’raev ijrosidagi “O’zbekim” qo’shig’ini eshittirish bilan yakunlanadi.

O’quvchilarga bugungi darsdan olgan bilim va malakalarni yanada shakllantirish va mustahkamlash uchun ularga “Erkin Vohidov she’riyatining shaydosiman” mavzusida insho yozib kelish uyga vazifa qilib beriladi.

2.2. Kasb-hunar kollejlarda shoir ijodini o'rgatishning samarali usullaridan foydalanish

Kasb-hunar kollejlarda Erkin Vohidov rayoti va ijodini o'rganish uchun 3 soat ajratilgan. Bu mashg'ulotni quyidagi yartibda olib borilsa dars samaradorligi ancha ortadi.

Dars Mavzusi: Erkin Vohidovning hayoti va ijodi.

"Ruhlar isyoni" dostonini o'rganish.

Darsning maqsadi: a) ta'limiy maqsad: noan'naviy metod asosida Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, "Ruhlar isyoni" dostoni bilan talabalarni keng qamrovda tanishtirish, doston matni ustida ishlash;

b) tarbiyaviy maqsad: talabalarda vatanparvarlik, ezgulik, sadoqat, mehr-muhabbat, insoniylik, samimiyat kabi fazilatlarni kamol toptirish, asar orqali axloqiy tarbiya berish;

c) rivojlantiruvchi maqsad: talabalarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlan, badiiy tafakkurini kengaytirish.

Dars tipi: Yangi bilim berish, mustahkamlash, ifodali o'qish.

Dars jihozi: Darslik, shoirning portreti, shoir ijodiga oid videolavha, Ye.Vohidov she'rlari bilan kuylangan qo'shiqlar albomi, mavzuga oid qo'llanma, test savollari, tarqatma savollar, shoirning she'riy to'plamlari.

Darsning uslubi: Aralash("B/B/B" usuli, suhbat, bahs - munozara, musobaqa).

DTS talablari: Talabalarni Ye.Vohidovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, "Ruhlar isyoni" dostoni voqealarini anglab yetishga erishish va asarni tahlil va tadqiq etishga erishish, dostonning badiiy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish.

Darsning borishi:

1. Darsni tashkil qilish: (1-5 minut)

a) salomlashish, yo'qlama; talabalarning darsga tayyorgarligini tekshirish, yangiliklar;

b) darsga tegishli o'quv qurollarini yozuv taxtasiga ilish va yozuv taxtasiga mavzuni yozish;

c) Darsda guruh talabalarni ikki guruhga bo'linadi har bir guruh shoir ijodidan kelib chiqib o'zlariga nom va shior tanlashadi.

2. O'tilgan mavzuni so'rash (10-15 minut).

Adabiyot fanining o'tilgan bobi yuzasidan talabalar bilimini aniqlashva faollikka undash maqsadida "Eng, eng, eng..." adabiy o'yini o'tkaziladi.

Har 2 guruhga konvertda 8 ta savol beriladi. Talabalar o'ylamay, tayyorlanmay savollarga javob berishlari kerak bo'ladi. Savollar quyidagicha:

Birinchi guruhga:

1. Yeng birinchi badiiy dostonni ayting.
2. Turkiy adabiyotdagi eng birinchi yirik asar qaysi?
3. Turkiy adabiyotdagi eng birinchi didaktik asar qaysi?
4. Yeng birinchi o'abek romani qaysi?
5. Yeng birinchi xamsanavis kim?
6. Mumtoz adabiyotda eng kichik shebriy janr qaysi?

Ikkinchi guruhga:

1. Yeng birinchi yozma yodgorliklarimiz nechanchi asrda yaratilgan?
2. Noma janrida eng birinchi asar kim tomonidan yaratilgan?
3. O'rxun- enasoy yodgarliklarini eng birinchi bo'lib kim o'qishga musharraf bo'lgan?
4. Turkiy tilida yaratilgan eng birinchi yirik sar muallifi kim?

5. Yeng birinchi birinchi g'azal namunolari kimning ijodida uchraydi?

6. O'zbek adabiyotida eng birinchi bo'lib hadislar yaratgan alloma kim?

3. Yangi mavzu bayoni: Yangi mavzu quyidagi reja asosida bayon etiladi:

Reja

1. Erkin Vohidovning hayoti va ijodi haqida umumiy ma'lumot.
2. "Ruhlar isyoni" dostoni haqida.
3. Doston matni ustida ishlash.

Kompyuter ekranida E. Vohidov haqidagi lavha namoyish etiladi:

Guruhlar o'rtasida "Siz shoirni qay darajada bilasiz?" musobaqasi o'tkaziladi. Buning uchu har bir guruh a'zosi shoir haqida bittadan ma'lumot aytadi. Takror yoki noto'g'ri ma'lumot aytgan, to'xtab qolgan guruh a'zosi o'yinni tark etadi. O'yin davomida umumta'lim maktabida o'rgangan she'rlari ham yod olinishi mumkin. O'yin juda tez, o'yiashga u qadar imkoniyat berilmagan uyushqoqli va asosiysi hamma talabalar ishtirokida o'tkailadi. Bu o'yinda har navbat kelganda mantiqli ma'lumot ayta olgan talabalar aniqlanadi va o'yin vaqti imkoniyatiga qarab, 1 ta yoki 2ta. 3ta ishtirokchi qolishi mumkin. Ular shoirni "eng yaxshi tanuvchilar" hisoblanadilar.

Guruh sardorlari "Klaster" orqali o'zlarini sinab ko'radilar.

Erkin Vohidovning hayoti va ijodi yuzasidan talabalarning bilimlari xattaxtdagi ushbu ko'rgazmalar orqali umumlashtiriladi:

She'riy to'plamlari

"Tong nafasi" (1061)	"Qo'shiqlarim sizga" (1962)
"Yurak va aql" (1963)	"Mening yulduzim" (1964)
"Yoshlik devoni" (1968)	"Muhabbat" (1976)

"Tirik sayyoralar" (1978) "Ruhlar isyoni" (1979)
"SHarqiy qirg'oq" (1982) " Kelajakka maktub" (19830
"Bedorlik" (1985) "Muhabbatnoma" va "Sadoqatnoma" (1992)
"Ishq savdosi"(yoshlik va o'smirlik)
"SHe'r dunyosi" (O'rta yosh)
"Umr daryosi"(50 yosh "Ko'ngil nidosi" (risola, badiiy lavhalar)

Tarjimalari:

I. Gyote "Faust"	S.Esenin " Zamin darg'asi"
A. Blok	M. Svetlov
A. Tvardovskiy	R. Hamzatov

Mehnat faoliyati:

Yosh gvardiya nashriyotida bosh muharrir.

G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida direktor.

"Yoshlik" jurnalida bosh muharrir.

Respublika Oliy Kengashi aʼzosi.

Oshkoralik masalalari qo'mitasi raisi.

Oliy Kengash Oliy majlisga aylangandan keyin xalq deputati.

Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi.

Mukofotlari:

Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983)

"O'zbekiston xalq shoiri" (1987)

"Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi (1997)t

"O'zbekiston Qahramoni" (1999)

" Ruhlar isyoni " dostonini o'qish:

Ifodali va sharhlab o'qishlar amalga oshiriladi.

Lug'atlar ustida ishlash:

olomon	kudurat	jaholat
Riksha	komiron	Hind bahri
xunrezlik	mehrob	qutqu
nifoq urug'I	mazlum	qabohat
Veda	g'azot	basir
ishtiboh	sarbaland	xurofot
gumroh	g'ofil	fatvo
mushfiq		

Bahs-munozara uchun quyidagi savollar o'rtaga tashlanib, aqliy hujum tashkil etiladi. Talabalarga oldingi darsda dostonni uyda mustaqil o'qib kelish topshirig'i berilganligi uchun Mushbu jadvaldagi aloqadorlikni sharhlash vazifasi topshiriladi va o'quvchilarning javoblari izojlanib, to'ldiriladi badiiy tasvir vositalari, tili va uslubi, dostonning nomlanishi haqida tushuncha beriladi:

Mavzuni mustahkamlash uchun "Ruhlar isyoni" dostonidan parchalar o'qitilib, sharhlanadi. Talabalarning doston haqidagi fikr va mulohazalari tinglanadi.

Yakuniy bosqichda mavzuga oid boshqotirmani echish har ikki guruhda musobaqa tarzida amalga oshiriladi, Boshqotirmani yechish natijalari bo'yicha savol-javob o'tkaziladi, noaniqliklarni oydinlashtiriladi. G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan talabalar baholanadi.

Uyga vazifa sifatida "Olam. Odam. Hayot va men" mavzusida esse yozib kelish topshiriladi. Esse yozish qoidalari tushuntiriladi.

Tarqatma material nusxasi

- "Ruhlar isyoni" dostonining mavzu doirasi nimalardan iborat?
- Hindlar bilan musulmonlar o'rtasidagi nizo keltirib chiqarilishidan kimlar manfaatdor?
- "Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol" misralari dostonning mazmuniga qay darajada aloqador?
- "Haqsizlikka ko'ndi olam, ammo shoir ko'nmadi..." satrlari haqida fikr bildiring.
- O'zbek xalqida ham Nazrul Islom taqdiriga o'xshash taqdirli shoirlar bormi?
- Hakim o'zi bilan olib ketgan hikmat hakida mulohaza yuriting.
- Dostonda berilgan rivoyatlar doston mavzusi bilan qanday bog'langan?
- " Eldan omad ketsa, Dastlab hamjihatlik yo'qolgay" misralarining mazmunini sharhlang.
- Doston misolida Odam, Olam, Hayot va yashashdan maqsad kabi tushunchalar haqida o'ylab ko'ring.
- "Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol" misralariga hamohang misralarni yana qaysi shoirda uchraydi?

Boshqotirma

1. Erkin Vohidovning onasi.
2. Shoirning birinchi she'ri qaysi jurnalda chop etolgan?

3. Nazrul Islomning vatani qayer?
4. O'zbek Akademik drama teatrida juda ko'p marta qo'yilgan dramasi nomi.
5. Birinchi sheʼrlar to'plami qanday nomlangan?
6. SHoir tug'ilgan joy.
7. seni kuylamagan kim?
8. "Donishqishloq latifalari" qahramoni kim?
9. Erkin Vohidovning g'azallari to'plami qanday nomlanadi?
- 10 SHoirning urush fojialari haqidagi dostoni.
11. Erkin Vohidovning ona yurt tarixi haqidagi asari.

					1	R	o	z	i	ya	x	o	n
				2	M	U	sh	t	u	m			
			4	3	H	i	n	d	i	s	t	o	n
			5	O	L	t	i	n	d	e	v	o	r
	6	T	o	ng	n	A	f	a	s	i			
7	O	l	t	i	a	R	i	q					
		8	Yo	sh	l	I	k						
9	M	a	t	m	u	S	a						
						10	Yo	sh	l	i	k		
						11	N	i	d	o			
12	o'	z	b	e	g	I	m						

3-Asosiy bosqich (55 daqiqa)

O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi. Mavzu tahlili davomida qo'llaniladigan "B/B/B", "Baxs-munozara", "Klaster", "Adabiy o'yin" tarzidagi o'qitish vositalari, ularning ta'limiy imkoniyatlari va mashg'ulot bosqichlari haqida batafsil tushuntiradi, shuningdek, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.

Talabalar mashg'ulot mavzusini hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoa ichida ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.

E. Vohidovning hayoti va ijodi. "Ruhlar isyoni" dostoni.

Ma'ruzada shoir hayoti va ijodining diqqatga sazovor jihatlari; shoir she'riyatining o'ziga xos qirralari, she'riy to'plamlari, dramalari, tarjimalari, mehnat faoliyati haqidagi aniq ma'lumotlarni keltiradi. (Ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi).

Kompyuter ekranida E.Vohidov haqidagi lavha namoyish etiladi. SHundan so'ng guruhlarga ajratilgan talabalar o'rtasida "Siz shoirni qay darajada bilasiz?" musobaqasi o'tkazilib, ularni faollashtirishga erishadi.

Guruh sardorlari esa "Klaster" orqali o'zlarini sinab ko'radilar.

Ko'rgazmali qurollar orqali shoir ijodi va faoliyati haqidagi ma'lumoylar talabalarga yetkaziladi.

Talabalarga 1-2 betlik shoir ijodi bilan bog'lq materialni tarqatadi va talabalar bu materiallar orqali hamda darslikda berilgan ma'lumotlarni o'qib o'zaro fikr almashadilar.

O'qituvchi shundan keyin darsda lirik chekinish qilib, talabalarni tabassum bekatinga yetaklaydi va E.Vohidov bilan bog'liq latifaga o'xshash voqeani aytib beradi.

"Ruhlar isyoni" dostonini o'rganishdan oldin, shoirning asar yaratilishi bilan bog'liq fikrlari bilan talabalarni tanishtiradi.

Talabalarga oldingi darsda duyda dostonni mustaqil o'qib kelish topshirig'i berilganligi uchun Nazrul Islom obrazi bilan bog'liq jadvaldagi aloqadorlikni sharhlash vazifasi topshiriladi va ularning javoblari izohlanib, to'ldiriladi. Badiiy tasvir vositalari, tili va uslubi, dostonning nomlanishi haqida tushuncha beriladi.

"Ruhlar isyoni" dostonining ayrim o'rinlari talabalarga o'qitiladi. Bunda asarni o'quvchilarning ifodali o'qishiga e'tibor beriladi.

SHundan so'ng talabalar mavzga oid tarqatma svollarga javob beradilar. Talabalar E.Vohidovning hayoti va ijodi haqida tushunchaga ega bo'ladilar va shoir asarlarining inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq, ahamiyatli jihatlarini anglash barobarida bu asarlarning insonga estetik zavq berishda ham muhim o'rinni egallashini tushunib yetadilar.

Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar.

Talabalar o'qituvchi tomonidan tarqatilgan matnlarni oladilar, hamda darslikda berilgan ma'lumotlar bilan birga o'rganib chiqadilar va o'zaro fikr almashadilar.

Bir-birlari va o'qituvchi tomonidan bildirilgan asosiy fikr va muloqazalarni bayon etishorqali talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglik va mas'uliyatlik kabi sifatlar shakllanadi.

Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai-nazarlarini bildiradilar.

Talabalar mashg'ulot boshlanishida "B/B/B" jadvalini to'ldiradilar.

Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlarini, nimalarni bilishni istashlarini aniqlashtirib oladilar va bunda jadvalning 3-ustunini darsning yakuniy bosqichida to'ldiradilar. Talabalarda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya

rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlarini to'g'ri rejalashtiradilar. Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi.

Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai-nazarlaridan kelib chiqqan qolda erkin fikr bildiradilar.

O'rganayotgan muammo yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadilar.

3-Yakuniy bosqich (10 daqiqa)

Talabalar tomonidan ma'ruza va darslikda keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid boshqotirmani bajaradilar, hamda turli xil topshiriqlar asosida nazorat o'tkazadi. Boshqotirmani yechish natijalari bo'yicha savol-javob o'tkazadi, noaniqliklarni oydinlashtiradi. G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan boshqotirmani yechib, muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai-nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar.

O'rganayotgan mavzu yuzasidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadilar.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriq

Uyga vazifa berish: 5 daqiqa

"Odam. Olam. Hayot va yashashdan maqsad tushunchalarim" mavzusida esse tayyorlang.

O'qituvchi manbalarni e'lon qiladi, talabalar e'tiborini mavzuning asosiy yo'nalishlariga qaratadi, referat tayyorlash tartibini eslatadi.

O'qituvchi talabalar tomonidan berilgan savollarga javob beradi. " Odam. Olam. Hayot va yashashdan maqsad tushunchalarim" mavzusida esse tayyorlab keladilar

Muammoli savollar turli xil o'yinli mashg'ulotlar uchun ram ozuya berishini inobatga olib, "Klaster", 6X6X6, "Blits", "Ayliy hujum" o'yinlari oryili o'quvchilarni izlanish va muayyan faollikka yo'naltiriladi. Mashg'ulotni yuqoridagi tarzda turli o'yinlar va boshya interfaol usullardan foydalanib o'tish o'quvchilarda guruh va jamoada faoliyat yuritish, muayyan masalada mustaqil fikrlarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilishga bo'lgan mayl larni yanada rivojlantiradi.

Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasini o'rganish

O'zbek xalqidan yetishib chiqqan buyuk iste'dod sohiblari hayoti va ijodini o'rganish barkamol kelajak egalari – yoshlarning ta'lim va tarbiyasida juda muhim roly o'ynaydi. Ana shunday iste'dod sohiblaridan biri Erkin Vohidov bo'lib, u o'zbek adabiyoti tarixi hamda madaniyati maydonida o'ziga xos o'ringa va mavqeiga ega bo'lgan taniqli shoir , jamoat arbobidir. Erkin Vohidovning hayoti va ijodi umumiy o'rta ta'lim, akademik-litsey va kasb hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari adabiyot dasturlariga kiritilgan, reja asosida o'qib o'rgatiladi.

Jumladan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining 4-bosqichida XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalari qatorida Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rgatish uchun 6 soat vaqt ajratilgan. (2 soat ma'ruza va 4 soat amaliy mashg'ulot). Ma'ruza mashg'ulotida Erkin Vohidov ijodiga umumiy sharh beriladi; she'riyati, dramaturgiyasi, dostonlarining mavzu ko'lami, o'ziga xosligi, boshqa ijodkorlardan farqli jihatlari o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa shoirning badiiy barkamol she'rlari, dostonlari va "Oltin devor " komediyasi tahlilga tortiladi.

Erkin Vohidov iste'dodli dramaturg sifatida ham tanilgan. Uning eng mashhur sahna asari "Oltin devor" komediyasidir. Bu asar 1970 yilda yaratilgan bo'lsada, hali hanuz sevib tomosha qilinadi.

Bilamizki, komediya janrining yuzaga kelishi shubhasiz, insoniyat tafakkuri rivoji, madaniy taraqqiyotda teatr san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Komediyaning janr sifatida o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi,

birinchi navbatda, Yevropa adabiyoti ta'siri bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan, uning takomillashib, rivoj topishida o'zbek xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagi o'lmas va bebaho hajviy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan bir qatorda, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lgan yuksak saviyadagi satirik va yumoristik ruhdagi asarlar komediyana vislarimiz uchun ilhom manbai va katta mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

Ma'lumki, komediyadagi komik xolat ijtimoiy ziddiyatlar hamda qarama-qarshiliklar orqali yuzaga chiqadi va o'z mohiyati bilan ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uning asosida kulgi yotadi. SHu sababli, komik vaziyat eng bemaza va xunuk narsa-xodisalar m ustidan h odamlarda kulgi uyg'otishi mumkin.

Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasida ham ma'naviy illatlar komik xarakterlar orqali fosh qilinadi. Hajviy mazmunga ega bo'lgan kulgili voqea va ziddiyatlar ichida har bir qahramon o'z qiyofasini namoyon qiladi. Komediya boylikka hirs qo'yish va qing'ir yo'llar bilan mol-mulk orttirishga intilish natijasida nochor ahvolga tushib qolgan asar qahramonlarining xatti-harakati, komik vaziyat tomoshabinda kulgi uyg'otadi. Nopok va nokas shaxslar esa sharmanda bo'ladi. SHu asosda asarning bosh g'oyasi: halollik, tinch-osuda, farovon hayot garovi ekanligi ochib beriladi.


Komediyaning janr sifatida boshqa turdagi adabiy janrlardan ajralib turadigan asosiy, o'ziga xos xususiyati shuki, unda ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan yomon illatlar, kamchiliklar, kishilar faoliyatidagi xatoliklar, adashishlar, ularning xarakteridagi salbiyliklar, o'jarlik, qo'pollik, yolg'onchilik, kabi nuqsonlar satirik va yumoristik kulgi orqali ochib beriladi. N.V.Gogol komediyaning ahamiyati haqida shunday yozadi: "Kulgi – ulug' ish, u jonni ham, molni ham olmaydi, ammo aybdor uning qarshisida bog'lab tashlangan quyondek tipirchilaydi"⁸ Bu fikrni davom ettirib, shuni aytish mumkinki, komediyadagi

⁸ Русские писатели о литературном труде. Т 1, М., 1984, С. 468

hajviy kulgi estetik tanqidning bir shaklidir. Chunki komediyada insonga xos nuqson va kamchiliklar samimiy va zaharxanda kulgi vositasida ko'rsatib beriladi.

“Oltin devor” komediyasida ham dramaturg satirik va yumoristik kulgidan o'z o'rnida va me'yorida foydalangan. Asardagi asosiy obrazlar, xususan, bosh qahramon Mo'min to'lig'icha komik xarakterga ega. Bu obraz katta mahorat bilan yaratilgan. Mo'min – o'z nomiga munosib, beozor, sodda, samimiy va halol inson. U oltin to'la ko'zani topib olgach, xalovatini yo'qotadi, turli xolatlarga tushadi: goh quvonadi, goh iztirob chekadi va oxir oqibat telba bo'lish darajasiga borib yetadi. Dramaturg Mo'min va uning atrofidagi kishilar hayotidan yorqin va jonli lavhalar ko'rsatib, komediyaning g'oyaviy mazmunini qiziqarli va ta'sirli qilib ifodalagan. Bunda u kinoya, masxaralash, askiya, hazil-mutoyiba, so'z o'yinlari va boshqa kulgi vositalaridan, shuningdek ruhiyat tahlilidan mahorat bilan foydalangan. Asar syujeti obrazlari singari tili ham yuqori saviyada go'zal va serjilo qilib yaratilgan.

Ushbu komediyani o'rganishda interfaol metodning “Tarmoqlar” usulidan foydalanishni tavsiya qilamiz. O'quvchi talabalarga asarning g'oyasi, obrazlar tizimini tarmoqlarda to'g'ri va aniq ko'rsatish topshiriladi.



Xulosa qilib aytganda , komediyaning xalqchilligi va hayotbaxshligini belgilovchi bosh omillardan biri bu – obrazlar orqali hayot muammolari va ezguliklarning ajoyib-g’aroyib komik xolatlarda ifoda etilishidir. Komizmning ko’rinishlari, turlari har xil, xuddi hayotning o’zidagi kabi. Komik xolatlar bizning ko’z o’ngimizda har kuni, har qadamda uchrashi mumkin, lekin biz uni negadir his qilmaymiz yoki ko’rmaymiz, qachonki ijodkor o’z asarida badiiy obrazlarda o’sha komik xolatlarni tasvir etsa, biz ana o’shandagina ularni ko’rib his qilamiz va ular ustidan kulamiz. Hayot bor joyda kulgi mavjud. Binobarin, komediya janri hayotiy kulgiga, turmushdagi kulgili xolatlarga asoslanishi lozim. Faqat hayot haqiqati zaminida vujudga kelgan yumorgina uzoq yashashi mumkin.

Umuman olganda Erkin Vohidov asarlarini o’rganishda o’quvchilarni faollashtirishga intilish, ularning mustaqil fikr bildirishlari uchun qulay sharoit yaratish ta’lim samaradorligi ta’minlanishiga ta’sir etadi. SHoir ijodi namunalarini “Zinama-zina”, “Bilimdonlar ringi”, “Kim eng bilag’on?” kabi o’yin, musobaqa usulidagi darslar davomida o’rganish ham ta’lim samaradorligiga olib

boradi. Bu esa o'quvchilarning Erkin Vohidov she'rlaridagi jozibani anglashlariga imkon beradi, shu bilan birga ularda badiyyatdan zavqlanish tuyg'ularini kamol toptiradi.

Erkin Vohidov asarlarini o'rganishda jarayonida savollarni hayot bilan bog'langanligi ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. Vaholanki, savolning javobi ustida har bir o'quvchining faol izlanishi, faollik ko'rsatishni talab qilinadi.

Umumiy xulosalar:

Adabiyot darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi o'quvchilarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, o'quvchilar nutqini o'stirishni ta'minlashdan, bir so'z bilan aytganda adabiyot o'qituvchisi oldida turgan barcha vazifalarni hal qilishga yordam berishdan iborat. Ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar yasash o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarni rasmlar, obrazlar orqali jonlantirib, qayta esga solish - *ko'rgazmalilik* deb ataladi. Adabiy matnni o'zlashtirishda tasviriy san'at, musiqa, kino, televidenie kabi vositalar yordam beradi. San'atning bu turlari axborot manbai bo'lib, o'quvchida estetik tuyg'uni uyg'otadi, yozuvchi yaratgan obrazlarni chuqur anglab olishga xizmat qiladi.

Erkin Vohidov she'rlarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida yangi pedtexnologiyadan foydalanish, ularda she'riyatdan zavqlanish

tuyg'ularini va shu tuyg'u ta'sirida ularda badiiyatdan zavqlanishni kamol toptirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor -ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent, "O'zbekiston", 2009.

2. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, "O'zbekiston", 2012.
3. Adabiyot. Akademik litseylar uchun o'quv dasturi. Tuzuvchilar: B.To'xliiev, B.Sarimsoqov. Toshkent, 2000.
4. Vohidov E. Saylanma. 3 jildlik kitob. Toshkent, SHarq, 2000
5. Vohidov E. Kuy avjida uzilmasin tor. Tokent, 1991.
6. Vohidov E. Ishq savdosi. Toshkent, SHarq, 2000
7. Vohidov E. SHoiru, she'ru. SHuur. Toshkent, 1987.
8. Zunnunov A, N.Xotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov. "Adabiyot o'qitish metodikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1992.
9. Yo'ldoshev Q. , Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: "O'qituvchi" 1994.
10. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: "O'qituvchi" 1996.
11. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf darsligi. Toshkent, 2009
12. Karimov N. va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent.O'qituvchi, 1999.
13. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., SHarafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent, O'qituvchi, 1999, 544 b.
14. Matjonov S. "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" Toshkent: "O'qituvchi" 1996.
15. Mirqosimova M. "O'quvchilarni adabiy – estetik tahlilga o'rgatish". Toshkent: "O'qituvchi" 1994.
16. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. T.: "Fan" 2007 y.
17. R.Niyozmetova. O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish masalalari. Toshkent, 2010.
18. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent: "Tamaddun", 2010.


19. Olimov S., Axmedov., R.Qo'chqor. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent, 2005.
20. Rafiev A, G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent, 2003.
21. Tolipov O'. O'quv – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. Toshkent: 2004.
22. To'xliev B. O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006.
23. To'xliev B. , Sarimsoqov B. Adabiyot. Akademik litseylar uchun dastur. Toshkent, 2000.
24. To'xliev B., SHermammedov T., Isaeva SH. Adabiyot. Akademik litseylarning uchinchi bosqichi uchun majmua. Toshkent, CHo'lpon, 2007.
25. To'xliev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
26. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi, 1-maxsus son. "SHarq" nashriyoti matbaa kontserni. 1999.
27. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Adabiyot. –T.: 2010. -63 b; 66 b.
28. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limining umumta'lim fanlari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent: "SHarq" 2001.
29. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustakil fikrlashga o'rgatish asoslari. T.: "Uzinkomtsentr" 2003 y.
30. Husanboeva Q. Adabiyot-ma'naviyat mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent, 2009.

Ilova

E.Vohidov hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan slaydlar



*Халқ устозим мен эса тоғиб —
Сўз дуғларини термокдир ишим.
Одамларини ўзидан олиб,
Одамларга бермокдир ишим.*



Эркин Воҳидов Фарғона вилоятининг Олтиариқ туманида 1936 йилнинг 28 декабрида ўқитувчилар хонадониди дунёга келди. Отаси Чўянбой Воҳидов, онаси Розияхон Воҳидова ўз даврининг маърифатли кишилари эдилар. Афсус, улар узоқ яшамадилар. Аввал Иккинчи жаҳон урушида яраланиб қайтган ота, сўнг онадан айрилган Эркин Воҳидов тошкентлик тоғаси Карим Соҳибоев хонадониди вояга етди. Шоир улғайган хонадонда тез-тез адабий суҳбатлар бўлиб турар эди. Эркин Воҳидовдаги нафосатга, шеърятга майл ана шу давраларда шаклланди. У жуда эрта кўлига қалам олди. 7 синфда ўқиб юрган кезларида биринчи шеъри “Муштум” журналида босилди. Мактабни тамомлаб, ТошДУнинг филология факультетига ўқишга кирди. Университет таълими шоир ижодий тақдирида чуқур из қолдирди: биринчи шеърий китоби “Тонг нафаси” талабалик йилларида яратилди.


Шундан буён ижодкорнинг қирқдан зиёд китоби китобхонларга тортиқ этилди. Лирик шеърлар билан бирга “Палаткада ёзилган дoston”, “Нидо”, “Руҳлар исёни” дostonлари, “Истамбул фожиаси” шеърий драмаси, “Донишқишлоқ латифалари” ҳажвий туркуми, “Олтин девор” комедияси, “Иккинчи тумор” трагикомедияси, “Шоиру шеър у шуур” номли адабий-фалсафий тўплами ўзбек адабиёти ривожига катта ҳисса бўлиб қўшилди. Эркин Воҳидов дунё шеърятининг ёрқин вакиллари С.Есенин, А.Блок, Л.Украинка, Р.Ҳамзатов сингари шоирларнинг қўплаб асарларини она тилимизга таржима қилган.

- Эркин Воҳидов томонидан улуғ немис мутафаккири Гётенинг “Фауст” асарининг ўзбек тилига ўгирилиши (1974) нафақат адабиётимиз, балки маданиятимиз тарихида муҳим воқеа бўлиб қолди.
- Эркин Воҳидов шеърятнинг ҳам бармок, ҳам аруз, ҳам сарбаст вазнларида ижод қилади. Шўро адабиётшунослигида аруз вазни “эскирган, замон талабига жавоб бера олмайди” деб инкор қилина бошлаган бир пайтда шоир “Ёшлик девони” (1969) китобини эълон қилган, ундан жой олган ўнлаб ғазаллар бундай даъвонинг пуч эканлигини исбот қилган эди:
- Истадим сайр айламокни мен ғазал бўстонида,
- Кулмангиз, не бор сенга деб Мир Алишер ёнида.
- Шеърят дунёси кенг, гулзори кўп, бўстони кўп,
- Ҳар кўнгил арзини айтур неки бор имконида.
- Эй мунаққид сен ғазални кўҳна деб камситмагил,
- Севги ҳам Одам Атодин қолган инсон қонида.
- Тошга ҳам ширнин ғазал бахш айлағай оташ ва жон,
- Шавқ ўти ёнса агар шоир - ғазалхон қонида.
- Шу тарика шоир инсон қонидаги азалий, табиий туйғу - севгини қуйлаган ғазал шаклини ҳимоя қилади, Шеърда ғазал шунчаки шеърин шакл маъносида эмас, муҳаббат, боқий инсоний туйғулар рамзи сифатида ҳам қўлланган.

- Дарҳақиқат, Эркин Воҳидов ўзининг бутун фаолияти ва ижодини халқимиз орзу-ўйлари ва ифодалаш, миллатимиз тақдирига даҳлдор муаммоларни дадил кўтариб чиқиш, кишиларимиз маданий-эстетик савиясини юксалтиришдек эзгу мақсадларга йўналтирилган. Бу жиҳатдан шоирнинг 1968 йилда ёзилган “Ўзбегим” қасидаси алоҳида аҳамиятга эга.
- Тарихингдир минг асрлар ичра инхон, ўзбегим, Сенга тенгдош Помиру оқсоч Тиёншон, ўзбегим.
- Сўйласин Афросиёбу сўйласин Ўрхун хати,
- Кўҳна тарих шодасинда битта маржон, ўзбегим.
- Ал-Беруний, Ал-Хоразмий, Ал-Фароб авлодидан,
- Асли насли балки Ўзлук, балки Тархон, ўзбегим.

● Шоир лирикаси

- Эркин Воҳидов публицист, драматург, дostonнавис сифатида баракали ижод қилган бўлса-да, аввало, у лирик шоир сифатида адабиётга кириб келган, халқимиз калбидан ҳам нафис, ҳам долғали, ҳам исёнкор шеърлари орқали жой олган.
- Шоирнинг ижоди баҳс-мунозаралар ичида кечди. Шоир ўз қўлидаги қурол - шеър, унинг табиати ва шоирнинг эл-юрт олдидаги бурчи-вазифаси хусусида кўп ўйлади, шеър ва шоир ҳақидаги қарашларини баён этди. Шоир “Сайланма”сига кирган шеърлар бу борадаги фикрларимизни тасдиқлайди.



“Ишқ савдоси”




“Шеър дунёси”



“Умр дарёси”



- 70-80-йилларга келиб шоир севги, ҳаёт куйчисигина эмас, кўпроқ ҳаётнинг , инсон қалбининг бадиий тадқиқотчиси сифатида кўрина бошлади. Айниқса бундай ҳолат “Ҳозирги ёшлар”, “Сирдарё ўлани”, “Арслон ўйнатувчи” шеърларида, “Рухлар исёни” достонида яққол намоён бўлади. “Рухлар исёни” достонига бенгал шоири Назрул Ислоннинг ҳаёти, фожиали қисмати асос қилиб олинган. . “Оташин бенгал шоири Назрул Ислоннинг қаҳрамонона ва фожиали тақдири кўпдан мени ҳаяжонга солиб келар, у ҳақда бирор нарса ёзиш ҳаёлида юрардим”, деб ёзади муаллиф. Шу тариқа у шоир ҳаётини синчиклаб ўрганди, унинг ҳаётига оид фактлар билан танишди.



“Руҳлар исёни”

Иккинчи фасл

Ғалаён

Жаҳолат
тўғрисида ривоят

“Руҳлар исёни”

Учинчи фасл

Тутқунликда

Шоҳи Жаҳон
ва Аврангзеб
ҳақида ривоят

“Руҳлар исёни”

Бешинчи фасл

Озодлик

Зохидлар
ва орифлар
ҳақида ривоят

Ниҳоят

● Достон ҳақсизлик ва адолат, истибод ва эрк орасидаги мангу курашда истеъдод эгасининг ўрни ҳақидаги фалсафий мушоҳадалар билан бошланади. Чин истеъдод эгасининг табиати яралишдан ноҳақликка, адолатсизликка, истибодга қарши исёндир деб ҳисоблайди муаллиф.

- Лек оламда бир дард борки,
- Унга сира нажот йўқ.
- Бу азобга ким дучорки,
- Унга кун йўқ,
- Ҳаёт йўқ.
- Бу машаққат ичган билан
- Дил тубига чўкмайди.
- Уни ҳеч ким юрагидан Ҳеч кимсага тўкмайди.

Shoirni, ayniqsa, faqat o'z joni tinchini o'ylandigan, jur'atsiz, qo'rqq, munofiqlar aqidasi tashvishga soladi. Haqsizlikni ko'ra-bila tura indamaslik, layoqaydlik xiyonatdir. Fusus, u jaholat tufayli karaxt, ko'r-u karga aylangan olomon ta'qibiga uchraydi: shoirni g'alayonning sababkori deb ataydilar. Shu tariqa el uchun jonini, jahonni berishga tayyor fidoyi shoir el dushmaniga aylanadi, hibsga olinadi.

Dostondagi Nazrul Islom qismati, unga daxldor rivoyatlar, shoirning ehtirolarga to'la o'y-mushohadalari bilan tanishar ekansiz, asarni yozishdan maqsad faqat bengal shoiri hayoti, Hindistonda kechgan voqealar, qadim rivoyatlarni hikoya qilishdan iborat emasligini sezib, his etib turasiz.

Шоирнинг “Қаро қошинг” деб бошланувчи шеъри 1957 йилда ёзилган ва шу кунгача аллитерация санъатининг гўзал намунаси ҳисобланади.

“Қаро қошинг, қалам қошинг,

Қилур қатлимга қасд қайраб –

Қилич қотил қарошинг, қиз.

Қафасда алб қушин қийнаб, қанот қоқмоққа қўймайсан.

Қалбимни қиздирсин қуёшинг, қиз.

- Ёшлик! Сени куйламаган ким,
- Эртакларинг суйламаган ким,
- Қариганда ўйламаган ким,
- Ўйлаб яна куйламаган ким?
- Битмоқ бўлдим мен ҳам сенга байт,
- Ёш юракнинг ҳаққи борми, айт?...
- Ёшлик – ишқу ошиқлик майли,
- Ўзи Мажнун, ҳам ўзи Лайли,
- Субҳи олам унинг туфайли.
- Майли унга битмасам майли,
- На бир ғазал, на бир мусаддас,
- Унинг ўзи шеърдан муқаддас
-

- “Куй авжида узилмасин тор” (1964)
- Куй авжида узилмасин тор,
- Шеър ярмида синмасин қалам.
- Яшаб бўлмай умрини зинҳор
- Бу дунёдан кетмасин одам.
- Қўлдан тушиб синмасин қадаҳ,
- Лаб текканда тўкилмасин май.
- Тўхтамасин уриб турган қалб,
- Бошлаб қўйган қўшиғи битмай.

Рост, ғазал авжида барча
 Ой ила Зухро
 эмас,
 Кўп эрур сомончилар ҳам
 шеърият
 осмонида...
 Дўстларим, шоир деманг,
 Эркин ғазал шайдосидур, Ёш денг-у
 маъзур тутинг,
 Саҳв ўлса гар девонида

“Донишқишлоқ латифалари”



E'tiboringiz uchun rahmat!

